

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti
tarbiyachisining ish hujjatlarini
yuritish tartibi
(Uslubiy qo`llanma)**

Toshkent- 2025

Mazkur uslubiy qo'llanmada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ish hujjatlarini yuritish tartibi bo'yicha metodik ko'rsatmalar yoritib berilgan bo'lib maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun amaliy yordam sifatida tavsiya etildi.

Uslubiy tavsiyanomadan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, pedagogika oliy o'quv yurtlari va kollej talabalari ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi muallf: "Pedagogika" kafedrasida dotsenti N.I.Ergasheva

Tuzuvchi: USAT "Pedagogika" kafedrasida mudiri, p.f.f.d. (PhD), N.I.Ergasheva

Taqrizchilar: Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasida v.b. dotsent, (PhD) N.N.Ravshanova

Ushbu uslubiy qo'llanma Fan va texnologiyalar universiteti Ilmiy kengashining 2024-yil 15-martdagi 4-sonli yig'ilishida ma'qullangan.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 13 maydagi 391-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Ushbu buyruqning ilovalari bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuritiladigan ish hujjatlari ro‘yxati va hujjatlarni yuritilishi bo‘yicha qo‘llanma tasdiqlanib, respublikaning barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish uchun tavsiya etildi.

Tavsiyanoma davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi barcha pedagoglar uchun ish hujjatlarini to‘g‘ri rasmiylashtirish hamda unga ijodiy yondoshgan holda qat’iy amal qilish tartibini belgilaydi. Tavsiyanomani tayyorlashdan maqsad maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya va metodik ishlarni zamon talablari darajasida yangicha yondoshgan holda tashkil etish hamda hujjatlar yuritilishida ta’lim mazmuni samaradorligini oshirishga qaratilganligini ta’minlashdan iborat.

O‘quv yili boshida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori tomonidan tashkilotning barcha pedagog xodimlari ushbu qo‘llanma bilan tanishtiriladi. Ushbu ish hujjatlari bilan tanishgan har bir pedagoglar mazkur qo‘llanmaga amal qilishi va me‘yoriy- metodik hujjatlarni yuritishga ma’sul hisoblanadilar.

Tavsiyanomada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachining ish hujjatlarini to‘g‘ri yuritish, 05-02 Ish jurnalini to‘g‘ri rasmiylashtirish, O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ertalabki soat, ta’limiy faoliyat, sayr, kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan olib boriladigan tadbirlar, pedagoglar bilan hamkorlik ishlari, yakka tartibda ishlashni rasmiylashtirish bo‘yicha namunalar tavsiya etildi. Shuningdek, metodik yordam

tariqasida ertalabki davra suhbat mavzulari asosida kartoteka, ertalabki badantarbiya mashqlar kartotekasi ham ilova tariqasida berilgan.

Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ish hujjatlari

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023 yil 28 avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining ish xujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 99-sonli buyrug'i, ilovasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuritiladigan ish hujjatlari ro'yxati tasdiqlangan. Jumladan, ushbu hujjatgan ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachining ish hujjatlari "05" indeks raqami bilan ro'yxatdan o'tkazildi va yuritilishi hamda yig'ma jildi shakllantirilishgi lozim bo'lgan hujjatlar jadvali taqdim etildi. Ushbu jadvaldan berilgan tavsiyaga ijodiy yondashgan holda har bir ta'lim tashkilotining ichki imkoniyatlarini, kadrlarning salohiyati ta'lim jarayonini tashkil etishni e'tiborga olgan holda quyidagicha tartibda yuritilishi tavsiya etiladi.

05 - Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Y/j indeksi	Yig'ma jild nomi	Saqlanish muddati va modda raqamlari	Izoh
05-01	"Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar.	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 ^b -modda	
05-02	Oylik ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil 124-modda	
05-03	Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar)	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
05-04	Bolalarning rivojlanish xaritalari. Yillik hisobot.	3 yil ¹	Tarbiyalanuvchi tashkilotdan ketgandan so'ng

1. 05-01 – "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar. 05-01.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

Mazkur dastur bolaning to'laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o'qishini, uning maktabda ta'lim olishga samarali tayyorlanishini ta'minlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat bo'lib sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish” qo‘llanmasi.

05-02 Oylilik ish rejasi (Ish jurnali)

Jurnalning titul varag‘idan keyingi betga tavsiyalar joylashtirilgan bo‘lib, tarbiyachi bu tavsiyalardan faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Keyingi sahifada tarbiyachining joriy o‘quv yilida o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalari yoritiladi. Asosiy vazifalar tashkilotning dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda olinadi. Unda tarbiyachi o‘zining pedagogik salohiyatini oshirish uchun amalga oshirmoqchi bo‘lgan, markazlar faoliyatini boyitishga qaratilgan, zamonaviy jihozlash, rejalashtirilgan tadbirlar, ota-onalar, pedagoglar bilan hamkorlikdagi ishlarni yoritadi.

Jurnalning titul varag‘idan keyingi betga tavsiyalar joylashtirilgan bo‘lib, tarbiyachi bu tavsiyalardan faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Keyingi sahifada tarbiyachining joriy o‘quv yilida o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalari yoritiladi. Asosiy vazifalar tashkilotning dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda olinadi. Unda tarbiyachi o‘zining pedagogik salohiyatini oshirish uchun amalga oshirmoqchi bo‘lgan, markazlar faoliyatini boyitishga qaratilgan, zamonaviy jihozlash, rejalashtirilgan tadbirlar, ota-onalar, pedagoglar bilan hamkorlikdagi ishlarni yoritadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining ish vaqti va guruh yoshiga qarab kun tartibi va ta’limiy faoliyatlar jadvali ta’lim tashkilotining 1-sonli pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

Bir oy uchun ikki xil tartibda ertalabki badantarbiya mashqlari rejalashtirilib, 1-15 sanagacha predmetsiz mashqlar, 16-31 sanalarda predmetlar (*guruhdagi tarbiyalanuvchilar soniga yetarli bo‘lishi lozim*) bilan ertalabki badantarbiya mashqlari rejalashtiriladi. Ertalabki badantarbiya mashqlari kartoteka shaklida saqlanadi. (bolakadem.uz elektron platformasidan ertalabki badantarbiya mashqlari kartotekasidan foydalanish mumkin).

Ertalabki qabul — tarbiyachining ish jurnalida berilgan ushbu qismda bolalarni birlamchi tibbiy ko‘rikdan (filtr) o‘tkazish, bolaning kayfiyati, sog‘lig‘i haqidagi ma’lumotlarni ota-onalardan olish, davomatga belgilab qabulni yakunlash va bolalarning hoxishlariga ko‘ra o‘yin jarayoniga taklif etadi.

O‘yinlar – Tarbiyalanuvchilarning hoxish-istaklariga ko‘ra, hafta mavzusi bo‘yicha ta’limiy, rivojlantiruvchi, syujetli-rolli, sahnalashtirish o‘yinlarining nomi qayd etiladi;

Bolalar bilan suhbat - tarbiyachining ish jurnalida ta’lim-tarbiya faoliyati aks ettirilib, unda oy mavzusi, sanasi, hafta mavzusi, hafta mavzusining maqsadi yoritiladi. Ertalabki qabul jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan quyidagi 5 ta mavzuda suhbat olib borishlari tavsiya etiladi:

1. Dushanba – “Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar” (bolalar orqali otanalar bilan hamkorlik ishlarini o‘rnatish maqsadida hamda haftaning birinchi kunini inobat olib, bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi).

2. Seshanba – “Odob axloq qoidalari” (bolalarda milliy qadriyat, urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, salomlashish, do‘stlashish, sog‘lom hayot faoliyatiga o‘rgatish, mehnatsevarlik, to‘g‘ri so‘zlik, kamtarlik va b.q.);

3. Chorshanba – “Huquqiy savodxonlik” (bolalarda men konsepsiyasini shakllantirish maqsadida, ularni Vatan, ota-ona oldidagi burchlari va huquqlari mavzusida suhbatlar o‘tkaziladi).

4. Payshanba – “Yo‘l harakati qoidalari” (bolalar ishtirokidagi yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish maqsadida “Xavfsiz piyoda”, “Odobli yo‘lovchi”, “Svetofor” kabi mavzularda suhbat olib boriladi).

5. Juma – “Bola hayoti xavfsizligi asoslari” mavzularida (haftaning shanba va yakshanba kuni dam olish kunlari bo‘lganligi sababli, bolalar uyda yolg‘iz qolishlari yoki ota-onalar bilan ko‘ngil ochar maskanlariga borishlari, suv havzalarida cho‘milishlari va boshqa holatlarni inobatga olib, bolalarga begona shaxslar bilan muloqat qilganda, adashib qolganda qanday harakat qilish lozimligi to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi).

Ertalabki badantarbiya mashqlari (yuqoridagi uchinchi xat boshida ko‘rsatilgan ma‘lumotga qarang).

Ertalabki doira ish jurnalida quyidagicha rasmiylashtiriladi.

Mavzu			O‘zbekiston –mening Vatanim	
Davr			Sentyabr oyining 1-haftasi	
Faoliyat turi	Ertalabki doira	Dushanba	Ertalabki qabul	Bolalar kayfiyati, salomatligiga qarab qabul qilish. Bolalarning kiyim kechaklarini shkaflarga tartibli joylashiga e‘tibor qaratish.
			O‘yinlar	Ta‘limiy o‘yin “Bu kimning bolasi?”, “U qayerda yashaydi”, “Syujetli rolli o‘yin”, “Mehmon-mehmon”, “Oshxona”.

			<p>Bolalar bilan suhbat</p> <p>“Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar” (bolalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini o‘rnatish maqsadida hamda haftaning birinchi kunini inobat olib, bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi).</p>
			<p>Ertalabki badan tarbiya</p> <p>Gimnastika tayoqchalari bilan mashqlar. 1-sonli kartoteka.</p>

Ertalabki davra suhbat mavzulari

T A' LIM I Y - T A R B I Y A V I Y F A O L I Y A T		Ertalabki davra suhbat mavzusi		Resurs ta'minoti
T A' LIM V A T A R B I Y A J A R A Y O N I		DUSHANBA	“Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar” (bolalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini o‘rnatish maqsadida hamda haftaning birinchi kunini inobat olib, bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi).	
		SESHANBA	“Odob axloq qoidalari” (bolalarda milliy qadriyat, urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, salomlashish, do‘stlashish, sog‘lom hayot faoliyatiga o‘rgatish, mehnatsevarlik, to‘g‘ri so‘zlik, kamtarlik va b.q.);	
		CHORSHANBA	“Huquqiy savodxonlik” (bolalarda men konsepsiyasini shakllantirish maqsadida, ularni Vatan, ota-ona oldidagi burchlari va huquqlari mavzusida suhbatlar o‘tkaziladi).	
		PAYSHANBA	“Yo‘l harakati qoidalari” (bolalar ishtirokidagi yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish maqsadida “Xavfsiz piyoda”, “Odobli yo‘lovchi”, “Svetofor” kabi mavzularda suhbat olib boriladi).	

	JUMA	<p>“Bola xayoti xavfsizligi asoslari” mavzularida (haftaning shanba va yakshanba kuni dam olish kunlari bo‘lganligi sababli, bolalar uyda yolg‘iz qolishlari yoki ota-onalar bilan ko‘ngil ochar maskanlariga borishlari, suv havzalarida cho‘milishlari va boshqa holatlarni inobatga olib, bolalarga begona shaxslar bilan muloqat qilganda, adashib qolganda qanday harakat qilish lozimligi to‘g‘risida suhbat o‘tkiziladi).</p>
--	------	--

1. Umumiy guruh bo‘lib ishlash – Kunning birinchi yarmida frontal faoliyatning 2 turi o‘tkaziladi. Kunning birinchi yarmida bunday faoliyat turlari (elementar matematika, fan va tabiatshunoslik/ ekologiya, nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish, musiqa, tasviriy faoliyat) ta‘minlanishi kerak.

2. Kunning ikkinchi yarmidan keyin frontal faoliyatning 2 turi (konstruksiyalar tuzish/applikatsiya, loy, badiiy adabiyot).

Umumiy guruh bo‘lib ishlash bo‘limi ish jurnalida quyidagicha rasmiylashtiriladi.

MAVZU		Mening qadrdon O‘zbekistonim	
DAVR		Sentabr oyining 1 haftasi	
UMUMIY GURUH BO‘LIB ISHLASH	DUSHANBA	Ta‘limiy faoliyat:	Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish
		Mavzu:	O‘zbekiston- mening Vatanim
		Maqsad:	Bolalarda Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi. Rasmlarga qarab o‘z fikrini erkin bayon etadi, turli gaplarni tuzadi, rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzadi. So‘z turkumlarini yoshiga monand mustaqil, grammatik to‘g‘ri qo‘llaydi.
		Resurslar	“Mustaqillik bayrami” mavzusidagi rasm, vatan haqidagi she‘r matni

Markazlardagi faoliyatlar – ta‘lim faoliyati mavzuli rejalashtirish asosida tashkil etilib, har bir yosh guruhlari uchun alohida oy va hafta mavzulari aks ettiriladi. Pedagog bolalarga o‘zlari uchun o‘ynaydigan markazni tanlashlari kerakligini eslatib, beshta rivojlantirish markazlarida ta‘limiy faoliyatni tashkil etadi:

- *Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;*
- *Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi;*

- *Til va nutq markazi;*
- *Fan va tabiat markazi;*
- *San'at markazi.*

Tanlov taxtasidan bolalar o'zlari o'ynaydigan markazni belgilaydilar. Har bir guruhda beshta rivojlanish markazini aks ettiruvchi "Tanlov taxtasi" bo'lishi kerak. Bolalar "Tanlov taxtasi"ga o'zlari tanlagan markazni belgilaydilar yoki o'zlarining fotosuratlarini joylashtiradilar.

Markazlardagi faoliyatlar – ish jurnalida quyidagicha rasmiylashtiriladi.

Namunaviy rejalashtirishda berilgan markazlardagi faoliyatlarga, hudud (shahar)larning ichki imkoniyatlarini inobatga olib yoki ijodiy yondoshgan holda (asosiy oy mavzusidan chiqib ketilmaydi) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda markazlardagi faoliyat ish daftarida qayd etiladi.

RIVOJLANISH MARKAZLARIDA BOLALAR TANLOVI ASOSIDA HAFTALIK MAVZU BO'YICHA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONI			
	Rivojlanish markazlari	Ta'lim va tarbiya jarayoni	Resurs ta'minoti
DUSHANBA	Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi	Mening shahrim	Qurilish bloklari, lego, konstruktor, kubiklar
	Syujetli- rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi		
	Til va nutq markazi	Mening shahrim	Syujetli rasmlar, AKT, predmetli rasmlar
	Fan va tabiat markazi		
	San'at markazi		

Ish jurnalining 1-sayr bo‘limi 5 qismdan iborat.

Kuzatish – ikki turdan iborat bo‘lib, jonli va jonsiz tabiatni kuzatadi. Obyektga mos bo‘lgan mehnat turini tanlashi kerak (*o‘z-o‘ziga hizmat, xo‘jalik-maishiy mehnat, tabiatdagi mehnat, qo‘l mehnati (katta va tayyorlov guruhlarida o‘tkaziladi).*)

Mehnat - ushbu qismda tarbiyachi maydonchada olib borilishi mumkin bo‘lgan bolalarning yoshiga mos mehnat turlarini tanlaydi. Maydonchaga chiqishda albatta mehnat qurollarini ham olib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Harakatli o‘yin – jismoniy tarbiya yo‘riqchisi tomonidan o‘rgatilgan yangi harakatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, asosan 1 ta harakatli o‘yin rejalashtiriladi va qayd etiladi.

Sayr ta‘lim va tarbiya faoliyatini (frontal, kichik guruh) va o‘yin ta‘lim faoliyatini o‘z ichiga olish tavsiya etiladi.

Kun davomida pedagog bolalar faoliyatining o‘zgarishiga e‘tibor berishi kerak, ya‘ni kam harakatli va harakatchan faoliyat turini almashtirish kerak.

Sayrda pedagog harakatli o‘yinlarni ta‘minlaydi.

Sayrda bolalar bilan yakka ishlash rejalashtiriladi. Sayrda bolalar bilan yakka ishlashda ba‘zi ko‘nikmalarni mustahkamlash, bir yoki bir nechta bolalar bilan asosiy harakat mashqlarini bajartirish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, she‘rlarni yodlash, psixologning tavsiyasiga binoan suhbat bo‘lishi mumkin.

Asosiy harakat turlarini mustahkamlash – ushbu qism barcha bolalar uchun emas balki, ayrim sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, uloqtirish, irg‘itish, turli usullarda yurishda kamchiliklar bo‘lgan bolalar bilan olib boriladi va qaysi harakat mustahkamlanishi kerak bo‘lsa o‘sha harakat qayd etiladi va mustahkamlanadi.

Erkin o‘yin faoliyat – bolalarning hoxish-istaklariga ko‘ra deb qayd etiladi.

Sayr jarayoni – ish jurnalida quyidagicha rasmiylashtiriladi.

Mavzu		Mening qadrdon O‘zbekistonim		
Davr		Sentabr oyining 1-haftasi.		
Ta‘limiy- tarbiyaviy faoliyat	SAYR.	Dushanba	Kuzatish	Kuz faslidagi mavsumiy ob-havoni kuzatish
			Mehnat	Qumli maydonchadagi qumlarni yig‘ish
			Asosiy harakat turlarini mustahkamlash	Tovondan oyoq uchiga o‘tgan tarzda yurishni _____ bilan mashq qilish
			Harakatli o‘yin	“Qopqon” xarakatli o‘yin
			Erkin o‘yin faoliyati	“Barmoqlar teatri”, “Xizmat mashinalari” to‘plami, tabiiy material (<i>yong‘oq po‘chog‘i, barglar</i>)lardan kompozitsiya yasash.

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish

Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)

Bolalarning ijodiy faoliyat turlari –(Bolalarning ijodiy faoliyat turlari bilan shug'ullanishlarini ta'minlash: konstruksiyalar tuzish/applikatsiya, loy. Uning davomiyligi kuniga 30-40 daqiqadan oshmasligi kerak, o'rtada jismoniy tarbiya daqiqalari o'tkaziladi.

To'garak ishlari – (Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra turli to'garaklar kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladi. Qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlari faqat tushdan keyin soat 16:00 dan boshlab amalga oshiriladi. Kunning ikkinchi yarmida ular bir vaqtning o'zida qo'shimcha ta'lim bo'yicha pedagog bilan boshqa xonada amalga oshirilishi mumkin, shuningdek, belgilangan vaqtda guruh pedagogi ota-onalari bolalarning to'garaklarda ta'lim olish istagini bildirgan bolalarni qo'shimcha ta'lim bo'yicha pedagogga olib boradi. To'garaklardagi bolalar qo'shimcha ta'lim pedagogi tomonidan ishlab chiqilgan rejaga muvofiq shug'ullanadilar.

Badiiy adabiyot – hafta mavzusiga ko'ra tanlanadi.

Pedagoglarning bolalar bilan yakka ishlashlari – pedagoglar (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) hamkorligi asosida rivojlanish xaritasining indikatorlari bo'yicha yakka tartibda ishlash tashkil etilib, tarbiyalanuvchi o'zlashtirmagan rivojlantiruvchi sohalar indikatorlari bo'yicha ishlar rejalashtirilib, tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi qayd etiladi.

Kechki davra suhbatlari o'tilgan mavzu tahlili (refleksiya)– ushbu suhbat jarayonida bolalarning kun davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalari (*bola kompetensiyasi*) tahlil qilinadi va umumlashtiriladi hamda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda, ertangi kunda faoliyat yuritadigan markazlar haqida ma'lumot beradi (*refleksiya*).

Kechki soat (*taxminiy vaqti 16:30 dan 18:00 gacha. 10,5 soatli maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun*)

Kunning ikkinchi yarmi – ish jurnalida quyidagicha rasmiylashtiriladi.

			O'yin va tadbirlar nomi	Resurs ta'minoti
		DUSH ANBA	To'garak ishlari	
			Badiiy adabiyot	“Mohir qo'llar” to'garagi “Non hidi” rivoyatini sahnalashtirish Ertak qahramonlarining kiyimlari, savatda non (pape-mashe usulda yasalgan)

KUNNING IKKINCHI YARIMI	Pedagoglarning bolalar bilan yakka ishlari (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi). Hamkorlik asosidagi bolaning rivojlanish xaritasidagi indikatorlari bo‘yicha ishlar	Nosirova Nargiza bilan “O‘z hissiyotlari hamda kechinmalarini do‘stlari va yaqin kishilari bilan o‘rtoqlashadi” indikatorlari bo‘yicha ishlash. Axrorov Abror bilan “Turli analizatorlar (yopiq ko‘zlar, paypaslash, ta‘miga qarab aniqlash) yordamida predmetlarni tadqiq qiladi” indikatorlari bo‘yicha ishlash.	Mazmunli rasm Sanoq cho‘plar, mayda o‘yinchoqlar
	Kechki davra suhbat, o‘tilgan mavzu tahlili (refleksiya)	Bolalar bilan o‘tilgan mavzu bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.	Savollar

Ikkinchi sayrda – ixtiyoriy o‘yinlar, ota-onalar bilan suhbat rejalashtiriladi (*tarbiyalanuvchining o‘zlashtirishi, ta’lim jarayondagi ishtiroki, uyga vazifasi, bolaning rivojlanish xaritasi bajarilmagan indekatori bo‘yicha (bola shaxsiga tegishli ma’lumot yakka holatda o‘tkaziladi) mavzularda*).

Ikkinchi sayrdagi jadvalning izoh qatoriga bir nechta ixtiyoriy o‘yinlar tanlanganda jadvalning birinchi qatoriga yoziladi. Ikkinchi qatoriga ota-onalar bilan o‘tkazilgan suhbat mavzusiga izoh talab etilganda va birdan ortiq mavzular tanlanganda mazkur qator to‘ldiriladi.

Ikkinchi sayr – ish jurnalida quyidagicha rasmiylashtiriladi.

IKKINCHI SAYR	DUSHANBA	Erkin o‘yin faoliyati	So‘z o‘yinlari: “Kimga nima kerak?” o‘yini, “Tovushga so‘z ayt” o‘yini, “Tovush o‘rnini top” o‘yinlarini olishimiz mumkin. Kegli, badminton, arqon, uzun arqon, koptok, xalqalar.	
		Ota-onalar bilan suhbat	O‘z kiyimlarini tartibga solishga o‘rgatish	

05-03. Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, ota-onalar to'g'risidagi).

Bolalar davomatini qayd etish daftari yosh guruhlarida bolalar qatnovini har kuni soat 9.00 dan kechiktirmay belgilab boriladi va kelgan bolalarning umumiy soni chiqarib qo'yiladi. Oy yakunida ro'yxatdagi bolalar kelgan, kelmagan kunlarining umumiy soni chiqariladi va natijalar umumlashtiriladi. Tahlilda ro'yxat bo'yicha bolalar soni, ushbu oy davomida kelgan va umuman kelmagan bolalarning aniq soni yoziladi. Ushbu tahlil asosida bola kuni bajarilishi aniqlanadi. Umumiy bolalar kuni va bola kelmagan kunlarning sababli va sababsiz soni yoziladi. Tahlil qilgan tarbiyachining familiyasi va imzosi, hamshira tomonidan bolalar sonining haqqoniyligini tasdiqlab imzo qo'yiladi. Tashkilot direktori oy davomida yuritilgan davomat va tahlilni nazoratdan o'tkazib, oy yakunida imzo va muhr qo'yadi.

Tabel daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Filtr daftari tarbiyachi bolalarni qabul qilish vaqtida har bir bolaning ota-onasi bilan bola salomatligi haqida qisqacha suhbatlashadi, birlamchi tibbiy nazoratdan o'tkazadi. Filtr daftarida tana harorati, teri tozaligi, bosh tozaligi (pedikulyozga tekshiruv) va ota-onadan olingan so'rovnomalar natijalari belgilanadi. Bolaning filtr nazorati ota-ona oldida o'tkaziladi.

Bola uch kun kelmagan takdirda filtr nazoratini tashkilotning tibbiyot xodimlari tomonidan o'tkazilishi va ota-onadan bolaning tashkilotga kelmaganlik sababini tasdiqlovchi tegishli hududiy davolash tashkiloti tomonidan berilgan maxsus shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilishi talab etiladi. Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Patronaj daftari - ushbu daftarni yuritish tashkilot hamshirasiga yuklatildi. Lekin tarbiyachi hamshira bilan hamkorlikda ishlashi va tarbiyalanuvchining kelmaslik sabablarini o'z vaqtida aniqlashda yordam berishi zarur xisoblanadi.

Ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar daftari: ushbu daftarga bolaning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, uy manzili, telefon raqami, ota-onasining familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning ish joylari haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va qo'shimcha ma'lumotlar olinganda, daftarga qayd etib boriladi. Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Bolalarning kundalik davomati Mart oyi 2024 yil

T.r	To'lov %	Bolalarning familiyasi, ismi	Kunlar																															Jami QATNAGAN KUN	Jami qatnamagan	Sababli	Sababsiz
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31				
1.	1/b	Abbosov Ali	y	x	x	y	y	y	y	y	x	x					x	x						x	x					x	x	15	6	6			
2.	2/b	Baxromov Sarvar		x	x						x	x					x	x	y	y	y	y	y	x	x	y	y				x	x	14	7		7	
3.	1/b	MahmudovaLobar		x	x						x	x					x	x						x	x						x	x	21	0			
30	1/b	Karimov Botir	y	x	x	y	y	y	y	y	x	x	y	y	y	y	y	x	x	y	y	y	y	y	x	x	y	y	y	y	y	x	x	Ta'til	21	21	
Bir bolali: 36				x	x						x	x					x	x						x	x					x	x						
Ikki va undan ortiq bolali: 14				x	x						x	x					x	x						x	x					x	x						
JAMI:			2	x	x	2	2	2	2	2	x	x	3	3	3	3	3	x	x	2	2	2	2	2	x	x	2	2	3	3	3	x	x	50	34	27	7

Ro'yxat bo'yicha: 30 nafar

Qatnov tahlili: ulardan:

Direktor:

Jami kelganlar: 50
Jami kelmaganlar: 34

1 – kasallik sababli:
1 - oilaviy sharoitiga ko'ra:

Hamshira:
Tarbiyachi :

Filtr

T/r	Bolaning famiyasi, ismi	Sana; 01.03.24				Sana: 04.03.24				Sana: 05.03.24				Sana: 06.03.24			
		Harorati	Terisi	...	Otaona bilan o'tkazilgan so'rovnoma	Harorati	Terisi	...	Otaona bilan o'tkazilgan so'rovnoma	Harorati	Terisi	...	Otaona bilan o'tkazilgan so'rovnoma	Harorati	Terisi	...	Otaona bilan o'tkazilgan so'rovnoma
1.	Abbosov Ali	36-3t	toza	toza	Sog'lom	36-3t	toza	toza	Sog'lom	36-3t	toza	toza	Sog'lom	36-3t	toza	toza	Sog'lom
2.	Baxromov Sarvav	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom
3.	Maxmudova Lobar	36-2t	toza	toza	Sog'lom	36-2t	toza	toza	Sog'lom	36-2t	toza	toza	Sog'lom	36-2t	toza	toza	Sog'lom
4.	Karimov Botir	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom
5.	Rashidov Bilol	36-3t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom
6.	Toxirova Aziza	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-2t	toza	toza	Sog'lom	36-2t	toza	toza	Sog'lom	36-2t	toza	toza	Sog'lom
7.	Sobirova Omina	36-2t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom	36-5t	toza	toza	Sog'lom
Tarbiyachining imzosi																	

Namuna

Ota-ona to'g'risidagi ma'lumotlar

T/r	Bolaning familiyasi, ismi	Bolaning tug'ilgan sanasi va yili	Uy manzili va telefon raqami	Bola ota-onasining familiya, ismi, sharifi, ularning ish joyi va telefon raqamlari			
				Ota	Ish joyi	Ona	Ish joyi
1.	Abbosov Ali Bobur O'g'li	16.05.2020- yil	Chilonzor tumani Mashrab ko'chasi 101- uy	Xoshimov Bobur 94 123456	Chilonzor Buyum bozori Tadbirkor	Xoshimova Ozoda Alievna 94 123456	126- Maktabda hamshira
2.	Baxromov Sarvar Mansur o'g'li	05.09.2020-yil	Chilonzor tumani, 3tor Iqtisod ko'chasi 8- uy	Obidov Mansur 94 123456	28- oilaviy shifoxonada tish shifokori	Obidova Malika Adilovna 94 123456	Uy bekasi
3.	Maxmudova Lobar Jamol qizi	12.09.2020-yil	Chilonzor tumani, Naqqoshlik ko'chasi 84- uy	Asomov Jamol 94 123456	Haydovchi	Asomova Gulchehra Obidovna 94 123456	168-maktabda o'qituvchi
4.	Karimov Botir Ramz o'g'li	27.06.2020-yil	Chilonzor tuman, Mevazor ko'chasi 58-uy 2-xona	Karimov Ramz 94 123456	“Karzinka” savdo markazida sotuvchi	Karimova Dildora Odil qizi 94 123456	54- DMTTda tarbiyachi

05-04. Bolalarning rivojlanish xaritalari. Yillik hisobot

1. Bolalarning rivojlanishini kuzatish pedagog ishining muhim qismidir. Kuzatishlarning maqsadi har bir bola ta'lim faoliyatida va real vaziyatlarda ishtirok etish orqali turli ko'nikma va bilimlardan qanday foydalanishi haqida ma'lumot to'plashdir.

2. Pedagog bolalarni turli joylarda, turli vaqtlarda va turli sharoitlarda (pedagog, psixolog, defektolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) kuzatib boradi. ularning qiziqishlari, kuchli tomonlari va ehtiyojlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'ling.

3. Pedagog bolalarni kuzatib boradi va o'quv yilining boshida (birlamchi - sentabr), o'rtada (oraliq - dekabr), o'quv yilining oxirida (yakuniy - may) yiliga 3 marta bolaning rivojlanish xaritasini to'ldiradi.

4. Pedagog bir hafta davomida kuzatadigan 8 bolani aniqlaydi, shu bilan barcha bolalar bir oy ichida qamrab olinadi.

5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari bilan pedagog kuzatuv natijalarini indikatorlarga muvofiq bolaning rivojlanish xaritasiga kiritadi.

6. Ko'rsatkichlar kuzatuvning har bir bosqichida aniqlanadi (K - kuzatilmaydi yoki kamdan - kam hollarda kuzatiladi; B - ba'zan kuzatiladi; T - tez-tez kuzatiladi; D - barqaror kuzatiladi).

7. Pedagog kuzatuv natijalarini faqat bolaning ota-onasi bilan bo'lishishi mumkin.

8. Kuzatuv natijalarini boshqa ota-ona bilan muhokama qilishga yoki bir bolani boshqasi bilan solishtirishga yo'l qo'yilmaydi.

9. Pedagog kuzatuv natijalarining mahfiyligi tamoyiliga rioya qilishi kerak.

Kuzatishni o'tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- kuzatish bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo'naltirilgan bo'ladi.

bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatish kamida ikki hafta (yoki bir oy) mobaynida olib boriladi.

- pedagog bola to'g'risidagi ma'lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin.

- pedagog bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

3-6 yoshdagi bolalarni oraliq va yakuniy kuzatish natijalariga ko'ra, ushbu bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha rivojlanishida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayonning maqsadlari aniqlanadi.

6-7 yoshdagi bolalar uchun (maktabgacha ta'lim tashkiloti bitiruvchisi) faqat oraliq kuzatish maqsadlari aniqlanadi, yakuniy kuzatishdan so'ng bolaning maktabga tayyorligi xaritasi to'ldiriladi.

4-5 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning _____ familiyasi,

ismi: _____ yoshi:

Tug'ilgan sanasi: _____ Jinsi:

_____ (O'g'il /qiz)

Pedagog: _____

Kuzda to'ldirilgan sana: _____

Qishda to'ldirilgan sana: _____ Bahorda

to'ldirilgan sana:

_____.

№	Rivojlanish sohasi / Kutilayotgan natija	Dastlabki				Oraliq				Yakuniy				Pedagog izohi
		K	B	T	D	K	B	T	D	K	B	T	D	

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi

1.1 Kichik soha: Yirik motorika

1	Oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftining tashqi tomonida va tizzalarni baland ko'targan holda yuradi		✓				✓					✓	
2	Arqonda muvozanatni saqlagan holda yuradi				✓								
3	Tizzalarini baland ko'targan holda yuguradi			✓				✓					
4	Baland bo'lmagan to'siqlardan xatlaydi		✓				✓					✓	
5	Arg'amchoqdan sakrashga urinadi	✓					✓					✓	
6	Gimnastika o'rindig'ida qo'llari bilan tortilib emaklaydi		✓				✓					✓	
7	Gimnastika devori bo'ylab tirmashadi		✓				✓				✓		
8	Samokatda uchadi		✓				✓					✓	

1.2 Kichik soha: Mayda motorika

1	Kiyim, poyabzal tugmalarni mustaqil ravishda qadaydi va ochadi		✓				✓					✓	
2	Namuna asosida ipga kichik, o'rta va yirik munchoqlarni tizib chiqadi		✓				✓					✓	
3	Qulf, zulfinlarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi	✓						✓				✓	
4	Mayda predmetlarni burab yopadi va ochadi (konstruktor detallari)		✓				✓					✓	
5	Konstruktoring katta va kichik qismlaridan turli narsalar yasaydi		✓				✓				✓		
6	Namuna asosida to'g'ri chiziq va aylana chizadi	✓					✓			✓		✓	
7	Berilgan chiziqlar bo'yicha qog'oz, mato, salfetkani taxlaydi		✓				✓				✓		
8	Berilgan chiziq bo'ylab qaychi yordamida qog'ozni kesadi	✓					✓			✓			

1.3 Kichik soha: Sensomotorika

1	To'pni o'ng va chap qo'llarini galma-galdan ishlatib yerga uradi	✓					✓					✓	
2	O'ng va chap tomonga galma-galdan aylanadi		✓				✓					✓	
3	Turli yuza va teksturalarni farqlaydi	✓						✓				✓	
4	Matrap yordamida suzadigan va uchadigan mayda jismlarni tutib oladi		✓				✓					✓	
5	Sovunli pufakchalarni puflaydi		✓				✓					✓	

1.4 Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik

1	Vitaminlar va sog'lom ovqatlanish foydasi to'g'risida biladi		✓				✓					✓	
---	--	--	---	--	--	--	---	--	--	--	--	---	--

2	Ovqatdan oldin qo'llarini yuvadi	✓						✓					✓	
3	Sanchqidan to'g'ri foydalanadi	✓						✓					✓	
4	Tashqi ko'rinishini tartibga keltiradi		✓					✓					✓	
5	Xojatxonada o'zini eplaydi			✓					✓				✓	
6	Yordam so'ray oladi		✓					✓					✓	
7	Xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan joylar, predmetlarni aytadi (zina, ayvon, ochiq oyna, issiq suv, olov, dori-darmon, o'tkir asboblari, elektr toki)		✓					✓				✓		Oila, psixolog, tarbiyachi bilan ishlash

Yillik hisobot

Yillik hisobot quyidagi shakl asosida o'quv yili yakunida yoziladi. **Ushbu shaklda hisobotni defektolog, psixolog, musiqa rahbarlari ham yozib,** metodistga o'quv yili yakunida topshiradi va metodist maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'yicha hisobotni umumlashtirib, natijalar bo'yicha keyingi o'quv yiliga Maktabgacha ta'lim tashkiloti asosiy vazifalarini belgilaydi va Pedagogik kengashga taqdim etadi.

Namuna

Pedagogning o'quv yili yakunida yozadigan yillik hisoboti shakli (Tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari)

I. Maktabgacha ta'lim tashkiloti (guruh)ning umumiy tavsifi:

1. **Maktabgacha ta'lim tashkiloti (guruh)dagi bolalar soni:** _____
Ulardan: o'g'il bolalar _____ va qiz bolalar _____.

2. Hissiy muhit tavsifi: ijobiy, salbiy (*tagiga chiziq qilib belgilang*)

II. Joriy o'quv yilining maqsad va vazifalari. Ushbu bo'limda siz maktabgacha ta'lim tashkilotining rejasida o'quv yili uchun belgilangan asosiy vazifalarni ko'rsatib o'tishingiz kerak, shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq bolalar bilan tashkil etilgan faoliyat turlarini, o'tkazilgan tibbiy va pedagogik ko'riklari natijalarini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar pedagog ta'limning yangi shakllaridan foydalangan bo'lsa, ishini tavsiflaydi, masalan, "kviling" texnologiyasi, "Tanlash huquqi" texnologiyasi (bu yerda bola o'z xohishiga ko'ra rivojlanish markazini tanlaydi), agar boshqa texnologiyalar bo'lsa, uni ko'rsatib o'tadi.

O'quv yiliga asosiy vazifalar:

- Guruhda takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida bolalarda xavfsizlik va ekologik ta’lim asoslarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish orqali maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirish.
- Bolalarni jismoniy tarbiya va sportga qiziqishini orttirish va jalb qilish, ularning salomatligini mustahkamlash orqali ta’lim sifatini oshirib borish.
- Maktabgacha ta’limda innovatsiyalarni joriy qilish maqsadida “Bolalik akademiyasi” platformasidan keng foydalanishni tashkil etish.
- Bola shaxsini rivojlantirishda ota-onalarni kuzatuv kengashi orqali guruhdagi ta’lim-tarbiyaviy jarayonlariga jalb qilish.

Tibbiy ko‘riklar o‘tkazildi (maktabgacha ta’lim tashkiloti da tarbiyalanuvchilar qaysi turdagi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan, masalan, tor doirali mutaxassislarning qaysi toifadagi mutaxassislari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik amalga oshirilganligini ko‘rsatish lozim)

Defektolog, psixolog toifadagi mutaxassislar tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik amalga oshirildi.

O‘tkazilgan tadbirlar tavsifi.

- 1.«Ustoz va murabbiylar kuni»
 - 2.«O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni»
 - 3.«Yangi yil bayrami»
 - 4.«8-mart: Xalqaro xotin-qizlar kuni»
 - 5.«Navro‘z»
 - 6.«Xotira va qadrlash kuni»
- bayramlar o‘tkazildi.

III. Tarbiyalanuvchilarning tanlov va boshqa musobaqalardagi ishtiroki bo‘yicha natijalar

Katta guruh tarbiyalanuvchisi “Shashka” musobaqiga qatnashib tumanda 3-o‘rinni egalladi.

IV. Ota-onalar bilan hamkorlik ishlari

Tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi do‘stona muloqot o‘rnatilgan. Har chorakda ota-onalar uchun “Ochiq eshiklar” tadbiri o‘tkazildi.

Kuzatuv kengashi hamkorligida ota-onalar majlisini tashkil qilindi, «Oilamiz sportni sevadi» bellashuv o‘tkazildi. Otalarni singan o‘yinchoq, mebellarni tuzatish uchun ko‘makga chaqirildi.

V. Rivojlantiruvchi muhitni yangilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

“Nutq va til” markazi quyidagi didaktik o'yinlar va tarqatma materiallar bilan boyitildi:

- **Tarqatma materiallar:**
- «Idishlar», «Mebel», «Sabzavotlar», «Mevalar», «Elektr asboblar», «Kiyim», «Uy hayvonlari», «Yovvoyi hayvonlar», «Yer usti transporti», «Suv transporti», Alifbo (kirill va lotin), Kasma alifbo (kiril va lotin), So'zda tovushlarni aniqlash (kiril va lotin)
- Bo'g'inli kartochkalar to'plami (kiril va lotin).
- Ta'limiy o'yinlar kartotekasi (so'zlar, barmoqlar, ekologiya, matematika, musiqa), Namoyish materiali (kinofilmlar, videofilmlar, slaydlar va h.o.)
- **Plakatlar:**
- «Mening oilam» A 4, «Mening shahrim (qishlog'im)» A 3
- «Syujetli ilustrasiyalar" A3, «Hayot xavfsizligi asoslari va tejamkorlik saboqlari» A 3
- «O'zbekiston Respublikasi bayramlari» A2, «O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari» A2
- «O'zbekiston xalq amaliy san'ati» A3, «Yil fasllari» A-2
- «O'zbekiston tabiati» A – 2, «Kasblar» A-3
- «Dehqonchilik» A3, «Chorvachilik» A3
- «Yo'l harakati qoidalarini» A2, «Sharqning buyuk allomalari» A2
- «O'zbekistonning tarixiy shaharlari» A2, «Xalq amaliy san'ati» A3

Markazda bolalar mazmunli rasmlar orqali hikoyalar tuzdilar, o'qilgan badiiy asar yuzasidan savol-javoblarda qatnashdilar, nutq o'stirish bo'yicha ta'limiy o'yinlar o'ynadilar.

VI. O'quv yili yakuniga “Ilk qadam” davlat o'quv dasturini o'zlashtirish natijalari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (guruh)dagi bolalar soni: _____

Rivojlanish sohasi	Bolalarning rivojlanish xususiyatlarining namoyon bo'lish darajasi
---------------------------	---

	K (kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	V (ba'zida kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	T (tez-tez kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	D (doimiy ravishda kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi
Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi	1	2	7	20
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	1	2	7	20
Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	3	2	5	20
Bilish jarayonining rivojlanishi	3	2	5	20
Ijodiy rivojlanish	5	1	4	20

VII.O'quv yili yakuniga "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini o'zlashtirish natijalari – (bu yerda pedagog (tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari) majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhidagi 6-7 yoshli bolaning har bir rivojlanish sohasini o'zlashtirish darajasini ko'rsatib, bolalarning rivojlanish xaritalarini tahlil qiladi va quyida keltirilgan jadval asosida ko'rsatkichlarni umumlashtiradi).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (guruh)dagi bolalar soni: 30 nafar

Rivojlanish sohalari kompetensiyalari	Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarning shakllanishi			
	K (kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	V (ba'zida kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	T (tez-tez kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi	D (doimiy ravishda kuzatiladi) bola soni ko'rsatiladi
Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi				

O‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi			+	
Turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi				+
Turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foy- dalanadi			+	
O‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi				+
Shaxsiy gigiena ko‘nikmalarini qo‘llaydi				+
Hayot xavfsizligi asoslari qoidalariga rioya qiladi				+
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish				
O‘z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi			+	
O‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi				+
O‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi			+	
Kattalar va tengdoshlari bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi				+
Murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo‘llarini topadi				+
Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari				
Nutqni eshitadi va tushunadi				+
O‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap tuzilishlaridan foydalanadi				+
Ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqishi namoyon qiladi				+
Ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi			+	
Badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon bo‘ladi			+	

Soʻzning lugʻaviy, boʻgʻinli va fonetik tuzilishi toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻladi			+	
Matn mazmunining turli shakllarini mustaqil tuza oladi va qayta hikoya qila oladi				+
Bilish jarayonining rivojlanishi				
Bilim olishga faol qiziqishini namoyon etadi				+
Oʻquv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi				+
Predmetlar, voqealar va koʻrinishlar oʻrtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi				+
Raqamlar, hisoblashni biladi va ularni hayotda qoʻllaydi			+	
Makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi				+
Elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi			+	
Ijodiy rivojlanish				
Sanʼat va madaniyatga qiziqish bildiradi				+
Milliy anʼanalarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi				+
Sanʼatning maʼlum bir turiga boʻlgan afzalliklarni mustaqil ravishda ifodalaydi			+	
Olingan bilim va koʻnikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda oʻz ijodiy rejalari tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi			+	
Insonning dunyoni oʻzgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi				+

VIII.Oʻz ustida ishlash.

Pedagoglar (tarbiyachi, defektolog, psixolog va musiqa rahbari) oʻz ustida ishlashlari maqsadida malaka oshirish kurslaridan oʻtdilar, taʼlim-tarbiya jarayonida “Bolalik akademiyasi” raqamli platformasidan foydalandik, Takomillashtirilgan

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha seminarga qatnashdik.

IX.Keyingi o‘quv yiliga reja. (bu yerda tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari yillik hisobotdan kelib chiqib, qilingan tahlillarga asosan qisqa vazifalar belgilaydi.

<p>Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi</p> <p>1.</p> <p>2.</p>
<p>Ijtimoiy-hissiy rivojlanish</p> <p>1.</p> <p>2.</p>
<p>Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari</p> <p>1. Sodda va murakkab gaplarni nutqida qo‘llashni mashq qildirish.</p> <p>2.Qo‘lni uzmasdan nuqta- chiziqchalarni birlashtirib rasm chizishga o‘rgatish</p> <p>3.So‘z, tovush, bo‘g‘in, gap haqida amaliy mashq qildirish.</p>
<p>Bilish jarayonining rivojlanishi</p> <p>1. 10 gacha ko‘shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni yechishga o‘rgatish.</p>
<p>Ijodiy rivojlanishi</p> <p>1.</p> <p>2.</p>

VII. O‘z-o‘zining faoliyatini baholash (bu erda tarbiyachi, defektolog, psixolog va musiqa rahbari o‘z kasbiy faoliyatini jadvalda ko‘rsatilgan quyidagi mezonlar bo‘yicha baholaydi (ustunda, baholash ko‘rsatilgan reproductiv, samarali, ijodiy so‘zi bilan yoki “+” belgisi bilan belgilanadi)

Darajasi	Kompetensiya	Bahosi (tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari va metodist)

Reproduktiv (past)	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida berilgan namuna bo‘yicha faoliyatini tashkil etadi.	
Samarali (o‘rta)	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyatini tashkil etadi va turli ta’lim resurslarini o‘rganadi.	
Ijodiy (yuqori)	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyatini turli ta’lim resurslaridan foydalangan holda tashkil etadi. Mustaqil ravishda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida mavzuli rejalarni ishlab chiqadi.	+

Tarbiyachi _____

2-ilova. MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi
Bolalar to'liq kun davomida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi

№	Kun tartibi	Vaqtning taxminiy taqsimoti	Vaqt daqiqada
1.	Bolalarni qabul qilish, erkin o`yin faoliyati, ertalabki badantarbiya	7:30 – 8:20	50
2.	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	8:20 – 8:45	25
3.	Ertalabki davra suhbat	8:45 – 9:00	15
4.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	9:00 – 9:40	40 Har bir mashg`ulot va erkin faoliyat davomiyligi 15-20 daqiqa
5.	Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviga ko`ra o`yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni	9:40 – 10:30	50
6.	Birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	10:30 – 11:30	60
7.	Sayrdan qaytish (kiyim almashtirish, gigienik tadbirlar, individual faoliyat (zarurat bo'lganda, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari)	11:30 – 12:00	30
9.	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	12:00 – 12:30	30
10.	Guruh xonasida erkin o'yin faoliyati	12:30 – 13:00	30
11.	Uyquga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu Uyqusiz guruhlarda: bolalarning erkin tinch o'yin faoliyati, bolalar bilan individual ishlash, badiiy adabiyot o'qish)	13:00 – 15:00	120
12.	Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari	15:00 – 15:10	10
13.	Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik	15:10 – 15:30	20
14.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	15:30 – 16:10	40 Har bir faoliyat turining davomiyligi 15-20 daqiqa
15.	Erkin o`yin faoliyati	16:10 – 16:50	40
16.	Ota-onalarning iltimosiga binoan qo'shimcha ta'lim xizmatlari (to'garaklar) va bolalar bilan individual ishlash	16:10–16:50	40
17.	Kechki davra suhbat/kun refleksiyesi	16:50-17:10	20

18.	Ikkinchi sayr, erkin o'yinlar	17:10 – 17:55	45
19.	Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi	17:030 – 18:00	30

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri huzuridagi **Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan** "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun kun tartibini va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha йўриқнома ишлаб чиқилди.

Yo'riqnomaning maqsad va vazifalari Nodavlat, oilaviy, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilariga hamda Davlat-xususiy sheriklik asosida hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini joriy etish bo'yicha yosh mutaxassislarga metodik yordam ko'rsatish.

Kun tartibini rejalashtirish.

Pedagoglar tomonidan o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha o'zlarining algoritmlarini yaratish

<p>Bolalarni qabul qilish, erkin o'yin faoliyati 7:30 – 8:00</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bolalarni qabul qilish pedagog tomonidan ertalab sayrda yoki guruhda ob-havo sharoiti asosida tashkil etiladi. 2. Pedagog bolani ota-onasidan qabul qiladi. 3. Ota-onalar bolani shaxsan maktabgacha ta'lim tashkilotiga olib kelishadi va uni pedagogga topshirishadi (uning yo'qligida, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori buyrug'i bilan tayinlangan shaxsga). 4. Pedagog ota-ona bilan bolaning farovonligi va kayfiyati haqida qisqacha suhbat o'tkazadi. 5. Bolalar sayrda xohlaganicha o'yin o'ynashadi.
<p>Ertalabki badantarbiyani tashkil etish 8:00 – 8:15</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Pedagog ertalabki badantarbiyani bolalar bilan ochiq havoda yoki ob-havo sharoitiga qarab guruhda o'tkazadi. 2. Pedagog ish rejasiga muvofiq ertalabki mashqlarni rejalashtiradi va o'tkazadi. 3. Ertalabki badantarbiyaning davomiyligi 10-15 daqiqadan oshmaydi.

	<p>4. Bolalar kiyimlari engil, oyoq kiyimlari qulay bo‘lishi kerak.</p> <p>5. Ertalabki badantarbiya majmuasi pedagog tomonidan oyning har 15 kunida tuziladi.</p> <p>6. Pedagogning xohishiga ko‘ra ertalabki mashqlar musiqa yoki safda o‘tkazilishi mumkin.</p> <p>7. Ertalabki badantarbiyani tugat-gandan so‘ng, pedagog bolalarga faol ishtiroki uchun minnatdorchilik bildiradi.</p> <p>8. Ertalabki badantarbiyadan so‘ng pedagog bolalarni kiyimlari va narsalarini olib, guruhga kirishga taklif qiladi.</p>
--	--

<p>Sayrdan qaytish 8:15 – 8:20</p>	<p>1. Bolalar guruhga kirib, oyoq kiyimlarini yechib, xonaga mo‘ljallangan oyoq kiyimlarini kiyishadi, yechinishadi.</p> <p>2. Har bir bola kiyimlarini alohida shkafga osib qo‘yadi.</p> <p>3. Pedagog bolalarga yechinishdan keyin qo‘llarini yuvish kerakligini eslatadi.</p>
<p>Qo‘lni yuvish 8:20 – 8:30</p>	<p>1. Bolalar qo‘llarini yuvishadi.</p> <p>2. Pedagog bolalarga qo‘l yuvish qoidalarini eslatadi.</p> <p>3. Qo‘llarni iliq suv bilan namlash kerak.</p> <p>4. Qo‘lingizni sovun bilan sovunlang.</p> <p>5. Kaftlaringizni yaxshilab sovunlang.</p> <p>6. Barmoqlaringiz orasiga yaxshilab sovun surting.</p> <p>7. Tirnoqlaringiz ostiga yaxshilab ko‘piklang.</p> <p>8. Qo‘lingizni iliq suv bilan yaxshilab yuvib tashlang.</p> <p>9. Qo‘lingizni bir marta ishlatiladigan sochiq yoki peçete bilan artib oling.</p> <p>10. Pedagogning vazifasi ovqatlanishdan oldin qo‘lingizni mustaqil ravishda yuvish,</p>

	<p>yuzingizni va qo‘llaringizni sochiq bilan quritish qobiliyatini mustahkamlashdir.</p> <p>11. Bolalarga sog‘lom bo‘lish uchun qo‘llarini qachon yuvish kerakligini eslatish juda muhimdir:</p> <p>ko‘chadan va turli o‘yinlardan kelganidan keyin;</p> <p>uy hayvonlari bilan o‘yinagandan so‘ng;</p> <p>bo‘yoqlar, plastilin, loy bilan mashg‘ulotlardan so‘ng;</p> <p>ovqatdan keyin.</p>
<p>Nonushtani tashkil etish 8:30 – 8:45</p>	<p>1.Pedagog yordamchisi bolalar (5-7 yosh) bilan birgalikda nonushta stolini tashkil qiladi.</p> <p>2.Bolalar qo‘llarini yuvgandan keyin kelib, o‘z joylariga o‘tirishadi va nonushta qilishni boshlaydilar.</p> <p>3.Pedagog bolalar qatorida o‘tiradi va bolalarning nonushta qilayotganini kuzatadi.</p> <p>4.Pedagog bolalarga ovqatni qanday qilib to‘g‘ri yeyishni eslatadi:</p> <p>ovqatni kam-kamdan olib yeyish;</p> <p>tinch ovqatlanish;</p> <p>sanchqi, qoshiq, pichoqni to‘g‘ri ishlatish;</p> <p>o‘tirganda gavdani tikka tutish;</p> <p>ovqatdan keyin idishlarni ehtiyotkorlik bilan yig‘ishtirish;</p> <p>Bo‘shagan idishlarni yig‘ib joyiga olib borish</p> <p>Pedagog bolalarga nonushtadan keyin qo‘llarini yuvish kerakligini eslatadi.</p>

<p>Ertalabki doira 8:45 – 9:00</p>	<p>1. Pedagog ertalabki doirani o‘tkazadi.</p> <p>2. Bolalar pedagog bilan birga gilamchada yoki stullarda aylana shaklida o‘tirishadi.</p> <p>3. Pedagog bolalarni bir-birlarini quchoqlashga va bir-birlari bilan salomlashishga taklif qiladi. (1 daqiqa)</p> <p>4. Hafta mavzusida o‘yin (2 daqiqa).</p> <p>5. Yangiliklar almashinuvi (2 daqiqa).</p> <p>Bolalar to‘pni bir-birlariga uzatadilar va pedagogning hafta mavzusidagi savollariga javob berishadi.</p>
--	--

	<p>6. Pedagog bolalar bilan birgalikda kun mavzusida kun rejasini (5 daqiqa) tuzadi. Bolalarga nima qilishlarini tushuntiradi.</p> <p>7. Pedagog bolalarga bugungi kunda ular o'zlari uchun o'ynaydigan markazni tanlashlari kerakligini eslatadi.</p> <p>8. Tanlov taxtasidan bolalar o'zlari o'ynaydigan markazni belgilaydilar. Har bir guruhda beshta rivojlanish markazini aks ettiruvchi "Tanlov taxtasi" bo'lishi kerak. Har bir markazning qarshisidagi bolalar o'zlarining fotosuratlarini belgilaydilar yoki joylashtiradilar.</p>
<p>Kunning birinchi yarmi. Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda) 9:00 – 9:40</p>	<p>2. Pedagog kunning birinchi yarmida (2-3 yosh – 15 daqiqa) (5-7 yosh – 20 daqiqa) bolalar bilan frontal (kichik guruh) faoliyatni amalga oshiradi.</p> <p>Kunning birinchi yarmida frontal faoliyatning 2 turi o'tkaziladi. Kunning birinchi yarmida bunday faoliyat turlari (elementar matematika, fan va tabiatshunoslik/ ekologiya, nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish, musiqa, tasviriy faoliyat) ta'minlanishi kerak.</p> <p>2. Kunning ikkinchi yarmidan keyin frontal faoliyatning 2 turi (konstruksiyalar tuzish/applikatsiya, loy, badiiy adabiyot)</p> <p>3. Frontal faoliyat davomida jismoniy daqiqalar amalga oshiriladi.</p>

<p>Kunning birinchi yarmi. Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni 9:40 – 10:30</p>	<p>1. Pedagog bolalarning e'tiborini ular o'zlari tanlagan holda rivojlanish markazlarida o'ynashlari mumkin bo'lganda jalb qiladi.</p> <p>2. Pedagog bolalarni hozirda turli markazlarda nima borligini ko'rishga taklif qiladi, bugungi kunda har bir markazda qiziqarli narsa paydo bo'lganligini va o'z tanlovini amalga oshirishni taklif qiladi.</p> <p>3. O'yin davomida bolalar boshqa tengdoshlar guruhiga qo'shilishlari mumkin.</p>
---	--

	<p>4. Tarbiyachi va yordamchi tarbiyachi, bolalar rivojlanish markazlarida ishlayotganda, ularning faoliyatini jarayonga aralashmasdan, faqat ularning faoliyati davomida yoki muammoli vaziyatlarda savollarga javob berish orqali kuzatadilar.</p> <p>5. Markazlardagi bolalarning o‘yin faoliyati davomida pedagog boshqa mutaxassislar (psixolog, defektolog, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi) bilan birgalikda ularning o‘yin faoliyatini kuzatishi mumkin.</p> <p>6. Rivojlanish markazlarida ish tugagandan so‘ng, bolalar kattalar bilan birgalikda o‘zlari ishlagan joylarini tozalaydilar, hamma narsani joyiga qo‘yadilar, qo‘llarini yuvadilar va sayrga tayyorlanadilar.</p>
--	--

<p>Birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o‘yinlar, mustaqil va individual faoliyat) 10:30 – 11:30</p>	<p>1. Bolalarning ochiq havoda yurishining kunlik davomiyligi kamida 3-4 soatni tashkil qiladi.</p> <p>2. Pedagog kuniga 2 marta sayrni tashkil qiladi: ertalab – tushlikdan oldin va kunning ikkinchi yarmida – ikkinchi tushlikdan keyin yoki bolalar uyga ketishdan oldin.</p> <p>3. Birinchi sayr -pedagog tomonidan tashkil etilgan va asosiy tarkibiy qismlarni (kuzatish, mehnat, qoidali harakatli o‘yin, asosiy harakatlarni mustahkamlash, erkin o‘yin faoliyat) o‘z ichiga oladi va haftaning mavzusiga mos kelishi kerak.</p> <p>4. Sayr ta’lim va tarbiya faoliyatini (frontal, kichik guruh) va o‘yin ta’lim faoliyatini o‘z ichiga olish tavsiya etiladi.</p> <p>5. Kun davomida pedagog bolalar faoliyatining o‘zgarishiga e’tibor berishi kerak, ya’ni kam harakatli va harakatchan faoliyat turini almashtirish kerak.</p> <p>6. Sayrda pedagog harakatli o‘yinlarni ta’minlaydi.</p> <p>7. Sayrda bolalar bilan yakka ishlash rejalashtiriladi. Bu ba’zi ko‘nikmalarni</p>
--	---

	<p>mustahkamlash, bir yoki bir nechta bolalar bilan asosiy harakat mashqlarini bajartirish, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etish, sheʼrlarni yodlash, psixologning tavsiyasiga binoan suhbat boʻlishi mumkin.</p>
--	---

<p>Sayrdan qaytish (kiyim almashtirish, gigienik tadbirlar, individual faoliyat (zarurat boʻlganda, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari) 11:30 – 12:00</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bolalar bilan pedagog sayrdan qaytadi. 2. Pedagog bolalarni mustaqil ravishda oyoq kiyim va kiyim almashtirishga, kiyim va oyoq kiyimlarni alohida shkaflarga qoʻyishlarini va qoʻllarini yuvishga undaydi. 3. Lozim topilganda pedagog psixolog, defektolog, musiqa rahbari bilan birgalikda bolalar bilan yakka tartibda ish olib boriladi. 4. Logoped 2-3 nafar bolani individual mashgʻulotlarga oladi. 5. Qolgan bolalar rivojlanish markazlarida oʻynaydilar.
<p>Tushlikka tayyorgarlik, tushlik 12:00 – 12:30</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Navbatchi bolalar bilan pedagoglarning yordamchilari dasturxonga idish-tovoq qoʻyishadi. 2. Navbatchi bolalar fartuk va qalpoq kiyishadi. 3. Tarbiyachi yordamchilari sochlari koʻrinmaslik uchun roʻmol yoki qalpoq kiyib oladilar. 4. Pedagog xizmatni nazorat qiladi: non uchun likopcha, salftka, shoʻrva uchun individual taxsimcha, ikkinchi taom uchun individual likopcha, salat uchun likopcha, kompot uchun stakan, oʻng tomonda qoshiq. 5. Bolalar kelishidan oldin, agar ovqat xonasi boʻlsa yoki bolalar oʻtirishidan oldin, ovqat quyidagi ketma-ketlikda qoʻyiladi salftkalar, non, birinchi taom, ikkinchi taom, salat va kompot. Bolalar qoʻllarini yuvgandan keyin kelib, oʻz joylariga oʻtirib, tushlik kiladilar. 6. Pedagog bolalar qatorida oʻtirib bolalarning ovqatlanishini kuzatadi va bolalarga ovqatlanish madaniyatini eslatadi.

<p>Guruh xonasida tushlikdan keyin erkin o‘yin faoliyati 12:30 – 13:00</p>	<p>1.Pedagog ovqatdan so‘ng bolalarga mustaqil faoliyat uchun imkoniyat yaratadi. 2.Pedagog bolalarga ovqatdan keyin tinch o‘ynash kerakligini eslatadi.</p>
<p>Uyquga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu Uyqusiz guruhlarda: bolalarning erkin tinch o‘yin faoliyati, bolalar bilan individual ishlash, badiiy adabiyot o‘qish. 13:00 – 15:00</p>	<p>1.Agar kerak bo‘lsa, yechinish paytida pedagog bolalarga yordam beradi, rag‘batlantiradi, maqtaydi, to‘g‘ri izohlar beradi. 2.Pedagog bolalarning e‘tiborini kiyimlarni ehtiyotkorlik bilan taxlash kerakligiga qaratadi. Qizlarga sochlaridan elastik tasmalarni olib tashlash va ularni shkaflariga olib borish taklif etiladi. 3.Pedagog ertak yoki audio yozuvni oldindan tayyorlaydi, hamma yotganda, u bolalarga ertak o‘qishi yoki tinglashi mumkin. 4.Pedagog uxlash istagini bo‘lmagan bolalarni guruhga kirishga va markazlarda tinch o‘yin o‘ynashga taklif qiladi.</p>
<p>Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari 15:00 – 15:10</p>	<p>1.Kunduzgi uyqudan keyin pedagog bolalar bilan tetiklantiruvchi gimnastika o‘tkazadi (5-8 daqiqa). 2.Pedagog "Rostlanish" mashqlarini, yengil yurish mashqlari bilan sekin sur‘atda harakatlanishini amalga oshiradi.</p>
<p>Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik 15:10 – 15:30</p>	<p>1.Navbatchi bolalar bilan pedagog yordamchisi stollarga idish-tovoq qo‘yadi. 2.Navbatchi bolalar fartuk va qalpoq kiyishadi. 3.Pedagog idishlar tarkibini nazorat qiladi: shirin kulcha uchun likopcha, salfetaklar, individual taxsimcha, choy ichish uchun piyola Pedagog bolalarga qo‘llarini yuvish kerakligini eslatadi, qo‘llarini yuvgandan so‘ng, bolalar kelib, o‘z joylariga o‘tirib, ovqatlanishni boshlaydilar.</p>

<p>Kunning ikkinchi yarmi.</p>	<p>1.Kunduzgi uyqudan keyin tushlikdan keyin pedagog bolalarni ijodiy faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlarini ta‘minlaydi: konstruksiyalar</p>
---------------------------------------	---

<p>Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda) 15:30 – 16:10</p>	<p>tuzish/applikatsiya, loy. Uning davomiyligi kuniga 30-40 daqiqadan oshmasligi kerak, O'rtada jismoniy tarbiya daqiqalari o'tkaziladi.</p>
<p>Kunning ikkinchi yarmi. Erkin o'yin faoliyati 16:10 – 16:50</p>	<p>1.Pedagog bolalarning e'tiborini ular o'zlari tanlagan holda rivojlanish markazlarida o'ynashlari mumkin bo'lganda jalb qiladi. 2.Pedagog bolalarning erkin o'yin faoliyatini nazorat qiladi, individual ish olib boradi.</p>
<p>Kunning ikkinchi yarmi. Ota-onalarning iltimosiga binoan qo'shimcha ta'lim xizmatlari (to'garaklar) va bolalar bilan individual ishlash 16:10 – 16:50</p>	<p>1.Qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlari faqat tushdan keyin soat 16:00 dan boshlab amalga oshiriladi. 2.Kunning ikkinchi yarmida ular bir vaqtning o'zida qo'shimcha ta'lim bo'yicha pedagog bilan boshqa xonada amalga oshirilishi mumkin, shuningdek, belgilangan vaqtda guruh pedagogi ota-onalari bolalarning to'garaklarda ta'lim olish istagini bildirgan bolalarni qo'shimcha ta'lim bo'yicha pedagogga olib boradi. 3.To'garaklardagi bolalar qo'shimcha ta'lim pedagogi tomonidan ishlab chiqilgan rejaga muvofiq shug'ullanadilar.</p>
<p>Kechki davra suhbat/kun refleksiyasi 16:50 – 17:10</p>	<p>1.Ko'zgu. Tarbiyachi: "Keling, o'tgan kun haqidagi taassurotlarimiz bilan o'rtoqlashaylik. Bugun nimani bilib oldingiz? Yana nimani bilishni xohlaysiz?" 2.Bolalar o'tgan kun haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar. Ular nimani o'rganganliklarini va yana nimani bilishni xohlashlarini aytadilar. 3.Yakuniy marosim. "Yaxshi kun uchun rahmat" 4.Pedagog bolalarga: "Iltimos, aylanada turing. Men sizni do'stona his-tuyg'ularingizni ifoda etishga yordam beradigan bitta marosimda qatnashishga taklif qilmoqchiman. Bu qanday sodir bo'ladi? Sizlardan biringiz aylananing o'rtasiga kirasiz, ikkinchisi uning oldiga kelib, qo'l berib: "Yaxshi kun uchun</p>

	<p>rahmat", deydi ikkalangiz ham qo'l ushlagan holda aylanada qolasiz. Keyin uchinchi ishtirokchi birinchi yoki ikkinchi bolaning bo'sh qo'lini ko'tarib: "Yaxshi kun uchun rahmat", deydi. Asta-sekin doira markazidagi guruh kattalashib boradi va hamma bir-birining qo'llarini ushlab turadi."</p>
<p>Ikkinchi sayr, erkin o'yinlar 17:10 – 17:55</p>	<p>1.Ikkinchi sayr iqlim sharoitiga qarab (toza havoda, rivojlanish markazlarida) bolalarni tanlash bo'yicha erkin o'yin faoliyati shaklida amalga oshiriladi.</p> <p>2.Pedagog bolalar bilan sayrga chiqadi, u yerda bolalar mustaqil ravishda o'ynashadi.</p> <p>3.Pedagog bolalarning o'yin faoliyatini nazorat qiladi.</p>
<p>Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi 17:30 – 18:00</p>	<p>1.Pedagog ota-onalar bilan bolalar kun davomida nima qilishgani haqida suhbat o'tkazadi.</p> <p>2.Bolalar bir-birlari bilan xayrlashadilar.</p> <p>3.Bolalar pedagog bilan xayrlashadilar.</p> <p>4.Bolalarni uyga olib ketish.</p>
<p>Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish O'quv yili davomida 3 marta (sentabr, dekabr, may)</p>	<p>1.Bolalarning rivojlanishini kuzatish pedagog ishining muhim qismidir. Kuzatishlarning maqsadi har bir bola ta'lim faoliyatida va real vaziyatlarda ishtirok etish orqali turli ko'nikma va bilimlardan qanday foydalanishi haqida ma'lumot to'plashdir.</p> <p>2.Pedagog bolalarni turli joylarda, turli vaqtlarda va turli sharoitlarda (pedagog, psixolog, defektolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) kuzatib boradi.ularning qiziqishlari, kuchli tomonlari va ehtiyojlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'ling.</p> <p>3.Pedagog bolalarni kuzatib boradi va o'quv yilining boshida (birlamchi - sentabr), o'rtada (oraliq – dekabr), o'quv yilining oxirida (yakuniy – may) yiliga 3</p>

marta bolaning rivojlanish xaritasini to'ldiradi.

4.Pedagog bir hafta davomida kuzatadigan 8 bolani aniqlaydi, shu bilan barcha bolalar bir oy ichida qamrab olinadi.

5.Maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari bilan pedagog kuzatuv natijalarini indikatorlarga muvofiq bolaning rivojlanish xaritasiga kiritadi.

6.Ko'rsatkichlar kuzatuvning har bir bosqichida aniqlanadi (K – kuzatilmaydi yoki kamdan – kam hollarda kuzatiladi; B – ba'zan kuzatiladi; T – tez-tez kuzatiladi; D- barqaror kuzatiladi).

7.Pedagog kuzatuv natijalarini faqat bolaning ota-onasi bilan bo'lishishi mumkin.

8.Kuzatuv natijalarini boshqa ota-ona bilan muhokama qilishga yoki bir bolani boshqasi bilan solishtirishga yo'l qo'yilmaydi.

9.Pedagog kuzatuv natijalarining maxfiyligi tamoyiliga rioya qilishi kerak.

2-ILOVA

2023-2024-o‘quv yili uchun ta’limiy-o‘yin faoliyatlar jadvali

Kichik guruh

T/R	HAFTA KUNI	TA’LIMiy O‘YIN FAOLIYATI
1	Dushanba	<ol style="list-style-type: none">1. Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish2. Markazlarda ishlash3. Jismoniy tarbiya
2	Seshanba	<ol style="list-style-type: none">1. Elementar matematika2. Markazlarda ishlash3. Musiqa
3	Chorbansha	<ol style="list-style-type: none">1. Sensor tarbiya2. Markazlarda ishlash
4	Payshanba	<ol style="list-style-type: none">1. Markazlarda ishlash2. Jismoniy tarbiya (ochiq havoda)
5	Juma	<ol style="list-style-type: none">1. Markazlarda ishlash2. Musiqa

“Kelishildi”
...-DMTT metodisti
....

“TASDIQLAYMAN”
...-DMTT direktori
...

2023-2024-o‘quv yili uchun ta’limiy-o‘yin faoliyatlar jadvali

O‘rta guruh

T/R	HAFTA KUNI	TA’LIMY O‘YIN FAOLIYATI
1	Dushanba	<ol style="list-style-type: none">1. Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish2. Markazlarda ishlash.3. Musiqa
2	Seshanba	<ol style="list-style-type: none">1. Elementar matematika2. Markazlarda ishlash3. Jismoniy tarbiya
3	Chorbansha	<ol style="list-style-type: none">1. Markazlarda ishlash2. Musiqa
4	Payshanba	<ol style="list-style-type: none">1. Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish2. Markazlarda ishlash
5	Juma	<ol style="list-style-type: none">1. Markazlarda ishlash Jismoniy tarbiya (ochiq havoda)

2023-2024-o‘quv yili uchun ta’limiy-o‘yin faoliyatlar jadvali

Katta guruh

T/R	HAFTA KUNI	TA’LIMIY O‘YIN FAOLIYATI
1	Dushanba	<ol style="list-style-type: none">1. Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish2. Markazlarda ishlash3. Xorijiy til
2	Seshanba	<ol style="list-style-type: none">1. Elementar matematika2. Markazlarda ishlash3. Savodxonlikka o‘rgatish4. Musiqa
3	Chorbansha	<ol style="list-style-type: none">1. Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish2. Markazlarda ishlash3. Jismoniy tarbiya
4	Payshanba	<ol style="list-style-type: none">1. Elementar matematika2. Markazlarda ishlash3. Xorijiy til
5	Juma	<ol style="list-style-type: none">1. Savodxonlikka o‘rgatish Markazlarda ishlash2. Musiqa3. Jismoniy tarbiya (ochiq havoda)

Tayyorlov guruh

T/R	HAFTA KUNI	TA'LIMY O'YIN FAOLIYATI
1	Dushanba	<ol style="list-style-type: none"> 1. Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish 2. Markazlarda ishlash 3. Musiqa
2	Seshanba	<ol style="list-style-type: none"> 1. Elementar matematika 2. Markazlarda ishlash 3. Xorijiy til 4. Jismoniy tarbiya
3	Chorbansha	<ol style="list-style-type: none"> 1. Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish 2. Savodxonlikka o'rgatish 3. Markazlarda ishlash
4	Payshanba	<ol style="list-style-type: none"> 1. Elementar matematika 2. Markazlarda ishlash 3. Xorijiy til 4. Jismoniy tarbiya (ochiq havoda)
5	Juma	<ol style="list-style-type: none"> 1. Savodxonlikka o'rgatish 2. Markazlarda ishlash 3. Musiqa

ERTALABKI SUHBATLAR

DUSHANBA

“Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar” (bolalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini o‘rnatish maqsadida hamda haftaning birinchi kunini inobat olib, bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi).

№	Mavzular
1.	Qo‘l yuvish odobi
2.	Tish yuvish odobi
3.	Kiyinish odobi
4.	“Тозалик - бу саломатлик”
5.	“Ўз-ўзига хизмат қилишни ўрганиш”
6.	“Салфеткалардан фойдаланиш”
7.	“Sport – salomatlik garovi”
8.	“Shaxsiy gigiena qoidalari”
9.	“Ichki kiyimlarimizni har kuni almashtiramiz”
10.	“Tirnoqlarimizni kaltalaymiz”

Mavzu: “Qo‘l yuvish qoidalari”

Bolalarni ozodalikka va tartibga odatlantirish. Qo‘llarni ovqatlanishdan oldin, hojatxonaga borgandan keyin va ifloslanganda yuvishga o‘rgatish. Qo‘l, oyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarni farqlashga odatlantirish.

Bolalarga qo‘l yuvish qoidasini tushuntirishda davom etish:

1. Qo‘lni yuvishda avvalo ko‘ylak yenglari ho‘l bo‘lmasligi uchun yenglarni shimarib olish kerak.
2. Qo‘llarini namlab olish va sovunni ko‘pirtirib olib kaftlarni bir-biriga yaxshilab ishqalash kerak. O‘ng kaft bilan chap qo‘lning ustini ishqalash va aksincha.
3. Kaftlarni bir-biriga ishqalash, bunda qo‘lning barmoqlarini bir-biriga chirmashtirish.
4. Barmoqlarning ustini boshqa qo‘lning kaftiga ishqalash, bunda barmoqlarni qulf qilib birlashtirish.
5. Chap qo‘lning katta barmog‘ini o‘ng qo‘lning kafti bilan aylanma harakat qilib ishqalash va aksincha.
6. Chap kaftni o‘ng qo‘lning birlashtirilgan barmoqlari bilan orqaga va oldinga aylanma harakat qilgan holda ishqalash va aksincha.

7. Qo‘lni chayishda ham barmoqlarni yaxshilab ishqalab chayish.

8. Qo‘llarda sovun ko‘pigi qolmasligi kerak. Chayib bo‘lgach qo‘l quriguncha sochiqqa artish.

Mavzu: “Tish yuvish qoidalari”

Bolalarga tishlarni kuniga 2 marta yuvish lozimligi, ularning tishlari sog‘lom bo‘lishi uchun ularni tozalash kerakligini tushuntirish.

Bolani eslatishsiz yuzini va qo‘llarini sovunlab yuvishga, tish cho‘tkasidan foydalanib tishlarini tozalashga, tish yuvish qoidalariga rioya qilish:

1. Barcha tishlarni tashqi yuzalarini milkdan tishning chetiga qarab tozalash.
2. Barcha tishlarni ichki yuzasini milkdan tishning chetiga qarab tozalash.
3. Har bir tishni chaynovchi yuzasini tozalash.
4. Oldingi tomondan yuqori va pastki tishlarning ichki yuzalarini tozalash.
5. Til va lunjni ichki yuzasini tozalashga o‘rgatish.

Mavzu: “Kiyinish odobi”

Kiyinish ham odobi xaqida tushuncha berish. Kiyimlarni ozoda saqlash va kiyish, ularni saranjom sarishta saqlash. Kiyimlarni mustaqil holda tartibli, orasta kiyib-yechish, tugmasini taqish, bog‘ichlarini bog‘lash, oyoq kiyimlarni toza holatda juftlab, o‘z joyiga olib qo‘yish, ularni oyoq kiyim shkafida saqlash, o‘zidagi tartibsizlik, pala-partish kiyinishni sezib, uni kattalar yordamida bartaraf etish.

Bolalarga ozoda va tartibli bo‘lishga odatlanish, kiyimdagi betartiblik (tugmachaning noto‘g‘ri qadalgani yoki yechilib ketgani, yoqaning qayrilib qolgani, oyoq kiyimining loy yoki changligi)ka e‘tibor berish, ko‘zguga qarab, kiyimini tartibga keltirishi, ularni mustaqil to‘g‘rilash yoki yordam so‘rab kattalarga murojaat qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Mavzu: “Tozalik - bu salomatlik”

Bolalarga tozalik-bu salomatlik bilan bog‘lik masala ekanligi xakida tushuncha berish. Salomatlikning bosh mezoni tozalik, ozoda yurish ekani, ertalab uyqudan turganda yuz-qo‘llarni yuvish, keyin sochiqqa artish, uyqu oldidan tishlarni tozalash, qo‘l-oyoqlarni yuvish, sochiq va dastro‘moldan to‘g‘ri foydalanish haqida tushuncha berish. Bolalarga qo‘l yuvish, tish yuvish qoidalarini o‘rgatish. Qo‘l, oyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarning alohida bo‘lishi kerakligi xaqida ma‘lumot berish va uni farqlashga odatlantirish. Salomatlik haqida buyuk allomalar o‘gitlari va rivoyatlaridan o‘qib berish.

Mavzu: “O‘z-o‘ziga xizmat qilishni o‘rganish”

Bolalarga har kimning o‘z xizmati borligi, ularga o‘zlaridan kattalarga ish buyurmaslik kerakligini tishuntirish. Bolalarga o‘zini parvarishlash ko‘nikmalarini shakllantirish: mustaqil yuvinish, tozalikka rioya qilish, ozodalikka va tartibga odatlantirish, tashqi ko‘rinishdagi kamchilikni o‘z vaqtida bartaraf qilish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish jarayonida bolada uyushqoqlikni va maqsadga qaratilganlikni, madaniy axloq ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalarda mustaqil ravishda xonasini yig‘ishtirish va o‘yinchoqlarini o‘z joyiga terib qo‘yish, o‘rin-joylarini yig‘ishtirish, ko‘rpa-yostiqlarning jildini kiydirish, choyshablarni tekislab chiqish, ularni almashtirishda kattalarga yordam berish, shaxsiy buyumlarini toza saqlash ko‘nikmasini mustahkamlash.

Mavzu: “Salfetkalardan foydalanish”

Bolalarga shaxsiy gigiena qoidalari haqida tushuncha berish. Salfetadan foydalanish lozimligi: qo‘llarini ko‘ylaklariga, burunlarini esa yenglariga artib olish xunuk odat ekani, doimo bolalar yonlarida yumshoq va chidamli bo‘lgan qog‘ozli salfetkalar bo‘lishi o‘zlari uchun odat tusiga aylantirishlari kerakligi, bolalarga burnini yumshoq salfetka bilan artish ancha yoqimli bo‘lishini, qog‘ozli salfetkalar esa uning kichkinagina burni uchun maxsus tayyorlangandek yumshoq va nozik ekanligini tushuntirish. Aksirganda salfetka bilan og‘iz va burunlarini berkitish atrofdagilarga mikroblarni yuqtirishdan saqlanishiga yordam berishini, bolalar doimo cho‘ntagi va sumkasida salfetka yoki ro‘molcha olib yurish kerakligini tushuntirish.

Mavzu: “Sport – salomatlik garovi”

Bolalarga sportning salomatligimiz uchun foydasi bebaho ekanini, sport bilan shug‘ullanganda sog‘lom, baquvvat bo‘lishlarini tushuntirish. Ertalabki badantarbiya bilan shug‘ullanish, ko‘chada sayr qilish insonni jismoniy sog‘lomlashtirishi, tetiklashtirishi haqida tushuncha berish.

11-mavzu:

Mavzu: “Shaxsiy gigiena qoidalari”

Bolalarga eslatishsiz yuzini va qo‘llarini sovunlab yuvishga, tish cho‘tkasidan foydalanib tishlarini tozalashga, qoshiqdan foydalangan holda tartibli ovqatlanishga, dastro‘molcha va hojatxona qog‘ozidan foydalanishga, yo‘talganda, aksirganda og‘zi va burnini dastro‘molcha yoki salfetka bilan berkitishga odatlantirish

O‘z-o‘ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda uyushqoqlikni va maqsadga qaratilganlikni, madaniy axloq ko‘nikmalarini shakllantirish. Uyqudan turgandan so‘ng yuvinish, uyquga yotishdan oldin oyoqni yuvish, qo‘llarni ovqatlanishdan oldin, hojatxonaga borgandan keyin va ifloslanganda yuvish, ovqatdan keyin og‘iz va tomoqni chayish, tishlarni to‘g‘ri tozalash, sovundan to‘g‘ri foydalanish, kiyimlarni joyiga ilish, oyoq kiyimni taxlash va ipini bog‘lashga o‘rgatish.

Mavzu: “Ichki kiyimlarimizni har kuni almashtiramiz”

Bolalarga shaxsiy gigiena qoidalari haqida tushuncha berish. Bolalarning har kuni ichki kiyimlarini almashtirishlari shaxsiy gigiena qoidalariga kirishi, bolalarga yuvilgan kiyimlarning yoqimli hidi bilan kirlangan kiyimlarning hidi o‘rtasidagi farqni his qilish, bolalarni almashtirgan ichki kiyimlarini maxsus savatchalarga tashlash zarurligi haqida rasmlar orqali izohlash.

Mavzu: “Tirnoqlarimizni kaltalaymiz”

Bolalarga doimo tirnoqlarimizni kaltalab olib yurish - shaxsiy gigiena qoidalariga kirishi, o‘sgan tirnoqlarga kir to‘planishi, ko‘plab zararli bakteriyalar esa aynan tirnoq ostida to‘planishi haqida tushuncha berish. Shuning uchun ota-onalar bolalarning tirnoqlarini olayotgan vaqtlarida injiqlik qilmaslik kerakligi haqida tushuncha berish.

SESHANBA

“Odob axloq qoidalari” (bolalarda milliy qadriyat, urf-odatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, salomlashish, do‘stlashish, sog‘lom hayot faoliyatiga o‘rgatish, mehnatsevarlik, to‘g‘ri so‘zlik, kamtarlik va b.q.)

№	Mavzular
1.	Odob salomdan boshlanadi
2.	Ota-onaga hurmat
3.	Bizning oila
4.	Buvi-buvijonlarimiz
5.	Aka-uka, opa-singillarga hurmat
6.	Qiz bolalarga xos fazilatlar
7.	O‘g‘il bolalarga xos fazilatlar
8.	Mehnatsevarlik
9.	Ota-onamga yordamchiman
10.	Dasturxon odobi
11.	Shirinso‘z bo‘lish
12.	Mehmonga borish odobi
13.	Mehmon kutish odobi
14.	Navro‘z bayrami
15.	Hashar
16.	9-may- Xotira va Qadrlash kuni
17.	Tejamkorlik- yaxshi odat
18.	Suv muqaddasdir
19.	Ozodalik-orastalik
20.	Oilaviy tadbirkorlik
21.	Kitob bizning do‘stimiz

Mavzu: “Odob salomdan boshlanadi”

Bolalarda kattalarga va tengdoshlariga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lish malakasini shakllantirish. Kattalarga assalomu-alaykum degan so‘zni to‘g‘ri va to‘liq aytib salomlashishga o‘rgatish. Bolalarga “Assalomu alaykum”-senga salomatlik tilayman, degan ma‘noni anglatsa “Vaalaykum assalom” -“sizga ham salomatlik tilayman” ekanligini tushuntirish. O‘zbek milliy qadriyat-o‘zbekona milliy salomlashishning o‘ziga xosligi: tabassum, ochiq chehra samimiy mehr bilan bir-biriga boqish, “Assalomu alaykum” deb salomlashganda ochiq chehralik va tabassum bilan salom beruvchi, alik oluvchilarning tovushlari bir-birlariga eshitarli bo‘lishi kerakligini tushuntirish. Salom-alikning mohiyatini chuqur tushunib yetishga, qadriga yeta olish, to‘g‘ri salomlashishga o‘rgatish. “Assalomu alaykum” iborasi haqidagi hikoyasidan o‘qib berish.

Mavzu: “Ota- onaga hurmat”

Bolalarga ota- ona eng qadrli inson ekanligini tushuntirish: ota-ona biz uchun eng aziz, eng yaqin kishilar. Ular farzandni dunyoga keltiradilar, umr bo‘yi farzand deb yashaydilar. Shunday ekan, har bir bola uz ota-onasini hurmatini joyiga qo‘yishi, ularning ko‘ngilini og‘ritmasligi kerak. Ular chaqirganda “Labbay”, “Xo‘p bo‘ladi” deyish, ularga salom berishni kanda qilmaslik, nasihatlariga quloq solish, ularni hurmat bilan o‘rindan turib qarshi olish, ota-onani suhbatini buzmaslik, qilayotgan ishlariga ko‘maklashish, ularga to‘rdan joy berish, qo‘llariga suv quyish, sochiq tutish, yo‘l berish, yo‘llarini kesib o‘tmaslik, ota-ona ruxsatisiz uzoq joylarga ketmaslik, ularga yolg‘on gapirmaslik lozimligi xaqida tushuncha berish. Har bir farzand, u hoh qiz bola bo‘lsin, hoh o‘g‘il bola o‘zining yaxshi odobi, namunali xulqi, o‘qishdagi yutuqlari bilan bilan ota-onasiga rahmat keltirishini tushuntirish.

Mavzu: “Bizning oila”

Oila tushunchasiga izoh berish. Oila muqaddas jamoa ekanligi, oilada oila a‘zolarining ahil yashashlari, oila boshliqlari buva-buvi, ota-ona ekanligi. Oilada ota-ona, aka-uka, opa-singillar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar xaqida. Rasm asosida «Bizning oila» mavzusida suhbat. Oilada farzandlarning tutgan o‘rni, ota-onalarning va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, (kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g‘amho‘r bo‘lish). Oilada hamjihatlik, ahillik, o‘zaro yordam oila baxtining asosi ekanligi haqida tushuncha berish.

Mavzu: “Buvi-buvajonlarimiz”

O‘zbek oilalarda buvijonlarni hurmat qilish, ularning xizmatlarini qilish qadimiy urf –odat ekani haqida tushuncha berish. Buvijonlarning dono, mehribon, to‘g‘riso‘z bo‘lishi, ularning so‘ziga quloq solish, bergan nasihatlariga amal qilish zarur ekanligi haqida tushuncha berish. Ertak, rivoyatlarda keksalarni asrash, ularning maslahatlari bilan ish tutish haqida aytilgan pand-nasihatlar. Buvi-buvajonlarning duolarini olish, hurmat qilish, ularning xizmatida bo‘lishni tushuntirish. Oilada qariyalar bilan ahil yashash haqida suratlar ko‘rsatish. Po‘lat Mo‘minning “Buvijonim, buvijon” she‘rini o‘qib berish orqali buvijonlarga nisbatan mehr uyg‘otish.

Mavzu: “Aka-uka, opa-singillarga hurmat”

Bolalarga oilada farzandlar bir-birlari bilan inoq-totuv, mehribon, hamkor va hamdard bo‘lib yashashlarini tushuntirish. Ota-onani qanday hurmat qilsak, aka-

opalarni ham shunday hurmat qilishga o‘rgatish. Aka-opalarga “akajon”, “opajon”, “labbay”, “xo‘p bo‘ladi”, “buni men qilay, siz ozgina dam oling” kabi so‘zlar bilan murojaat qilish kerakligi, bunday muomaladan ota-onalarimiz ham xursand bo‘lishini tushuntirish.

Bolalarga kattalarni hurmat qilish, ularni tinglay olish, iltimoslarini, topshiriqlarini bajarish, ko‘rsatmalariga quloq solish, kattalar bilan bo‘ladigan muloqotdan xursand bo‘lish, ularning savollariga to‘g‘ri javob berish, xushmuomalalik bilan “Assalomu-alaykum”, “Labbay”, “Xo‘p bo‘ladi”, “Xayr”, “Yaxshi borib keling” kabi so‘zlarni aytishga o‘rgatish.

Mavzu: “Qiz bolalarga xos fazilatlar”

Qiz bolalarga xos fazilatlar - uyatchanlik, tortinchoklik, o‘zini sipo tutish, baland ovozda gapirmaslik, qattiq kulmaslik, o‘tirganda kuylagi etagini yopib o‘tirish, xushmuomala bo‘lish, saranjom-sarishta bo‘lish, dildagi g‘azab va nafratini yuzaga chiqarmaslik. Ishda, so‘zda odobga rioya qilishni o‘rgatish.

Qizlarni saranjom-sarishta bo‘lishga o‘rgatish: o‘rin-joylarini yig‘ishtirish, ko‘rpa-yostiqlarning jildini kiydirish, choyshablarni tekislab chiqish, ularni almashtirishda kattalarga yordam berish, shaxsiy buyumlarini toza saqlash, o‘yinchoqlar, kitoblardan va mehnat quollaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, asrab-avaylash, asrash ko‘nikmasini mustahkamlash. Bolalarda buyumlarga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash. Mavzu bo‘yicha hikoya va rivoyat o‘qib berish va uni sharhlash.

Mavzu: “O‘g‘il bolalarga xos fazilatlar”

O‘g‘il bolalarga xos fazilatlar – mehnatsevar, aqlli, zehqli, chaqqon, botir, mard, do‘stlariga mehribon, g‘amxo‘r, farosatli, rostgo‘y, xushmuomala bo‘lish, saranjom-sarishta bo‘lish, dildagi g‘azab va nafratini yuzaga chiqarmaslik. Ishda, so‘zda odobga rioya qilishni o‘rgatish.

O‘g‘il bolalarni saranjom-sarishta bo‘lishga o‘rgatish: mustaqil ravishda xonasini yig‘ishtirish va o‘yinchoqlarini o‘z joyiga terib qo‘yish, o‘rin-joylarini yig‘ishtirish, ko‘rpa-yostiqlarning jildini kiydirish, choyshablarni tekislab chiqish, ularni almashtirishda kattalarga yordam berish, shaxsiy buyumlarini toza saqlash, o‘yinchoqlar, kitoblardan va mehnat quollaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, asrab-avaylash, asrash ko‘nikmasini mustahkamlash. Bolalarda buyumlarga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash. Mavzu bo‘yicha hikoya va rivoyat o‘qib berish va uni sharhlash.

Mavzu: “Mehnatsevarlik”

Bolalarni kattalarga sidqidildan yordam berishga odatlantirish. O‘zi qilgan ishning boshqalarga foydasi borligini bilishga, boshlagan ishini oxiriga yetkazib, hammaga yoqadigan bo‘lishga undash. O‘z mehnatining natijasidan quvonish hissini shakllantirish, mehnatsevarlikni tarbiyalash.

Qiz bolalarni ota-onasiga uy ishlariga yordam berishga odatlantirish, o‘g‘il bolalarga dadalariga yordamchi ekanini, oilada og‘ir ishlarni o‘g‘il bolalar bajarish kerakligi haqida tushuncha berish.

Mavzu: “Dasturxon odobi”

Bolalarga ovqatlanish odobi, tartibiga rioya qilish, ovqatlanishdan oldin qo‘llarni tozalab yuvish, iflos qo‘llar bilan ovqatmaslik haqida tushuncha berish. Bolalarga dasturxon odobi xaqida ma’lumot berish, dasturxon atrofida o‘zini yaxshi tuta olish, o‘zidan kattalarga iltifot ko‘rsatish, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish ham odoblilik belgisi ekanligini tushuntirish: dasturxoniga qo‘l uzatish, ovqat yeyish, choy uzatish va so‘zlashish odobi, ota-onaga ovqatlanib bo‘lgach dasturxondagi nozu-ne‘matlar uchun minnatdorchilik bildirish. Dasturxon atrofida o‘tirishning o‘ziga xos qoidalarini rasmlar orqali izohlash.

Mavzuga mos hikoya va rivoyatlar o‘qib berish.

Mavzu: “Shirinso‘z bo‘lish”

Bolalarga inson odobini, xulq atvorini ko‘z-ko‘z qiladigan xushmuomalalik, shirinso‘z bo‘lish xaqida til, so‘zlashish qoidasi haqida tushuncha berish. Bolalarni shirinso‘z bo‘lishga da’vat etish. Avvalo shirinso‘zlik nima ekanini tushuntirish. Shirinso‘zlikning insonlarning kayfiyatiga, ruhiyatiga ta’siri xaqida tushuncha berish. Qizlarga “yaxshi so‘z ham, yomon so‘z ham bir og‘izdan chiqadi”, “Avval o‘yla, keyin so‘yla” maqollarining mazmunini tushuntirish. Inson xatolarni ko‘proq o‘z tili bilan sodir qilishini hayotiy misollar bilan tushuntirish. Mavzu bo‘yicha Abu Ali Ibn Sinoning so‘zlaridan misollar keltirish. Mavzuga doir hikoya o‘qib berish.

Mavzu: “Mehmonga borish odobi”

O‘zbek oilalarda mehmonga borish, mehmon kutish qadimiy urf –odat ekani haqida tushuncha berish. Bolalarga mehmonga borish odobi haqida tushuncha berish. Bolani mehmonga olib borilganda o‘zini qanday tutishi kerakligi, mehmonda dasturxon atrofida chiroyli, odob bilan ovqatlanmog‘i, kattalardan avval taomga qo‘l cho‘zmasligi, ovqat paytida kattalar suhbatlariga aralashmasliklari, mehmonda xontaxta atrofida ovqatlangan, xontaxtaga tiranib, yonboshlab yoki cho‘zilib

ovqatlanish mumkin emasligini tushuntirish. Mehmonda to‘polon qilmasdan o‘z tengquri bilan ahil bo‘lib o‘yinlar o‘ynashlari kerakligi haqida tushuncha berish. Bolalarni “Mehmon-mehmon” o‘yini davomida mehmondo‘stlikni odat qilishga, mehmondan qaytishda xursandchilik bilan kulib xayrlashish, mezbonlarga minnatdorchilik bildirish, “Rahmat”, “Yaxshi qolinglar”, “Biznikiga ham mehmon bo‘lib boringlar” kabi so‘z va jummalarni ishlatib o‘ynashlariga e’tibor berish.

Mavzu: “Mehmon kutish odobi”

O‘zbek oilalarda mehmon kutish qadimiy urf –odat ekani, mehmon kutish odobi haqida tushuncha berish. Ularga mehmondo‘stlikni odat qilishga, mehmonni xursandchilik bilan kulib kutib olish, oldiga noz-ne’matlar qo‘yib, yeb-ichib o‘tirishga undashga o‘rgatish. Bolalarni “Mehmon-mehmon” o‘yini davomida “Iltimos, oling”, “Rahmat”, “Kechirasiz”, “Marxamat”, “Labbay”, “Xush kelibsiz”, “Yaxshi yetib oling”, “Yana mehmon bo‘lib keling” kabi so‘z va jummalarni ishlatib o‘ynashlariga e’tibor berish.

Mavzu: “Navro‘z bayrami” suhbat

Bolalarni Navro‘z bayrami haqida tushunchalarini kengaytirish. Qadim-qadimdan Navro‘z e‘zozli bo‘lib kelgani: yangi kun, yangi yil, yangi fasl deb nomlangani, bayramning o‘ziga xos xususiyatlari, udumlari haqida so‘zlab berish. Bolalarda milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat uyg‘otish.

Mavzu: “Hashar” mavzusida suhbat

Bolalarga hashar — qadimdan o‘zbek xalqi hayotida muhim o‘rin tutib kelgan udum ekani, hashar bu ko‘pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birgalashib harakat qilishi ekani haqida tushuncha berish. Hashar — kishilarni o‘z yaqinlari, mahalla-kuy, qo‘ni-qo‘shnilar bilan hamjihat, mehr-oqibatli bo‘lib yashashga imkoniyat yaratadigan udum ekani haqida tushuncha berish. Bolalarga hashar mavzusini mazmunli suratlar orqali tushuntirish.

Mavzu: “Xotira va qadrlash kuni”

Xotira va Qadrlash kuni haqida tushuncha berish. Bolalarga Xotira va Qadrlash kuni eng muqaddas kun hisoblanishi, xotira kuni kimdir Xotira maydonida urushdan qaytmagan yaqinlarini eslashi, kimdir qarindoshlari qabrini ziyorat qilishi, kimdir nuroniy ota-onasini, buvi, buvalaridan xabar olishi, ularning ko‘nglini ko‘tarishi – oilaviy qadriyat ekani haqida tushuncha berish.

“Tinchlikni kuylaymiz” she’rini mazmunini suratlar orqali tushuntirish.

Mavzu: “Tejamkorlik- yaxshi odat”

Tejamkorlik — bu narsalarni isrof qilmaslik, uni qadrlash, har bir narsani o‘z me‘yorida ishlata bilish, tejash, maqsadli foydalanish ekanligi haqida tushuncha berish. Davlatimiz, oilamiz boy bo‘lishi uchun har bir narsadan isrof qilmay foydalanishga odatlanish. Isrofgarchilik — yomon illat ekani, tejalman — suv, non, elektr energiyasi va boshqa ne‘matlarni isrof qilish yomon oqibatlarga olib kelishi haqida tushuncha berish. Reja bilan ish tutish har bir oilaga qut-baraka, baxt-saodat olib kelishi, isrofgarchilikning oxiri nochorlik, xor-zorlikka olib kelishini rivoyat, hikoyalar, maqollar orqali tushuntirish.

Nonni uvol qilmaslik haqida tushuncha berish: insoniyat uchun barcha noz-ne‘matlardan ulug‘i non ekanligi, uning inson hayoti uchun suv va havodek zarurligi, nonning uvog‘i ham non ekanligi, o‘zbek xalqi qadim-qadimdan nonni ulug‘lab ko‘zga surtishi, non dasturxon ko‘rki, oila farovonligining belgisi ekanligi, uni hech qachon uvol qilmaslik kerakligini tushuntirish.

Mavzu: “Suv muqaddasdir”

Bolalarga suv-bu hayot manbai ekanligi, suvsiz hayot bo‘lmasligi, insonlarning suvdan ichish uchun, yuvinish uchun, dehqonchilik, chorvachilik, qurilish va barcha kundalik turmushimizda foydalanishi haqida tushuncha berish. Bolalarga suvdan tejamkorlik bilan foydalanish, uni asrash, oqar ariqlarni toza saqlash, axlat tashlamaslik, suvni isrof qilmaslik har birimizning burchimiz ekanini tushuncha berish. Suvning inson hayoti uchun zarurligi, insonga huzur, tabiatga go‘zallik bag‘ishlashi, eng bebaho boylik ekanligi haqida tushuncha berish. Suvni isrof qilmaslik, uni asrashga oid maqol, hikoyalar aytib berish, videolavha va rasmlar orqali tushuntirish.

Mavzu: “Ozodalik-orastalik”

Bolalarga orastalik -bu ozodalik ekanligini tushuntirish. Kir yuvish, idish-tovoqlarni yuvishning ham o‘z qoidalari borligini o‘rgatish. Ovqat qoldiqlarini, sabzavotlarning po‘choqlarini, qotgan nonlarni chiqindilar bilan aralashtirmaslik, mag‘zava va yug‘indilarni hovli va yo‘lkalarga sepmaslik, ularni hovlining chekka joyiga to‘kish ham orastalikka kirishi, qiz bolaning bunday orastaligi yaxshi tarbiyadan darak berishi, kir yuvilgandan so‘ng uni toza chayish, teskarisini o‘girib yaxshilab qoqish kerakligini va yuvilgan kirlarning turiga, katta –kichikligiga qarab ilish, qurigan kirlarni tekis taxlash, dazmol qilish kabi ishlar farosatlilik ekanligi haqida tushuncha berish. Ya’ni biror kishining ogohlantirishini kutmasdan hovli yuzasida, uy ichida, xonalarda tartibsiz yotgan narsa va buyumlarni o‘z joyiga qo‘yish, ishlatilgan asboblarni artib, tozalab qo‘yish kerakligi, harom va halol narsalarni farqlash va bu so‘zlarni ma’nosini o‘rgatish. Orastalik, ozodalik, farosat haqida buyuk allomalar o‘gitlari va rivoyatlaridan o‘qib berish.

Mavzu: “Oilaviy tadbirkorlik”

Bolalarga har bir oilada o‘ziga xos tadbirkorlik mavjudligi, oila a‘zolarining o‘zlari yoqtirgan, qiziqqan xunarleri bo‘lishi, bu hunar avloddan avlodga o‘tib kelishi, uni farzandlarga, nabiralarga o‘rgatish an‘ana ekanligi haqida ma‘lumotlar berish. Masalan oilada kulolchilik, kashtachilik, qandolatchilik, gilamdo‘zlik, beshikchilik, tunkachilik, duradgorlik hunarleri bo‘lgan oila boshliqlari o‘z oldilariga avvalo o‘z farzandlarini oladilar shu bilan birga mahalladagi shu hunarga qiziqishi bo‘lgan bolalarni shogird etib olishlarini, hunarlarini ularga o‘rgatishlarini tushuntirish. Shu tariqa xunarmandlar oilasi tashkil topishi haqida ma‘lumotlar berish.

Bolalarga o‘zbek milliy hunarmandchiligiga hos bo‘lgan rasmlar, ko‘rgazmalar tashkil etish orqali xalq hunarmandchiligiga nisbatan qiziqish uyg‘otish. Hunarmandlar haqidagi ertak va rivoyatlaridan o‘qib berish.

Mavzu: “Kitob bizning do‘stimiz”

Bolalarda kitobga nisbatan qimmatbaho sovg‘a deb qarash, kitobni e‘zozlashni o‘rgatish.

Bolalarga ota-bobolarimiz azal-azaldan kitobni qadrlagan, uni avaylab asragani, ota-bobolarimiz kitobni qo‘llariga olganda, uni o‘pib ko‘zlariga surtishlari, bu: “Bizda bilim berasan, seni ko‘z qorachig‘idek asraymiz” –degani ekani, uning varog‘ini yirtish, iflos joylarga qo‘yish gunoh sanalgani, kitobni muqaddas deb bilganlari, kitobning varog‘ini yirtmaslik, iflos qo‘l bilan olmaslik, ozoda saqlash haqida tushuncha berish.

Bolalarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini tarbiyalash.

CHORSHANBA

“Huquqiy savodxonlik” (bolalarda men konsepsiyasini shakllantirish maqsadida, ularni Vatan, ota-ona oldidagi burchlari va huquqlari mavzusida suhbatlar o‘tkaziladi).

№	Mavzular
1.	“O‘zbekiston—mening Vatanim”
2.	“Vatanimiz ramzlari”
3.	“Ona shahrim”
4.	“Shahrimizning muqaddas ziyoratgohlari”
5.	“Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz”
6.	“14yanvar-Vatan himoyachilari kuni”
7.	“Mening oilam”
8.	“Ustoz otengdek ulug‘”
9.	“Qizil kitob” muhofaza ramzi
10.	“Suv muqaddas”
11.	“Nima yaxshi-yu, nima yomon”
12.	“Mening huquqlarim”
13.	“Mening burchlarim”
14.	“8-dekabr Konstitutsiya kuni”
15.	“Yaxshi bola halol va pokdir”

Mavzu. “O‘zbekiston—mening Vatanim”

Maqsad: Suhbat orqali bolalarga tug‘ilib o‘sgan joyi haqida so‘zlab, Vatan tushunchasiga izoh berish, bolalarga o‘z Vatanga mehr tuyg‘usini uyg‘otish, Vatan borlig‘ini (daraxtu, gulzorlarini, jonzodlarini) asrab-avaylashlari lozimligini bolalar ongiga singdirish.

Vatanimizning o‘z bayrog‘i, gerbi, madhiyasi borligi haqida ilk tushunchalarni berish.

Mavzu: “Vatanimiz ramzlari”

Maqsad: O‘zbekiston Respublikasining ramzlari: bayroq, gerb, madhiya bilan tanishtirish. Bolalarga timsoldagi ifodalar ma’nosini tushunishga yordam berish va ularga nisbatan hurmat bilan qarash, davlatimiz ramzlaridan faxrlanish va ularni hamisha himoya qilish, madhiya matnini yaratgan shoirni, musiqasini yaratgan bastakorning ismi, shariflarini bilish.

Mavzu. “Ona shahrim”

Maqsad: bolalarga tug‘ilib o‘sgan joylari, ona shaharlari haqida savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. Bolalarni surat bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Surat bo‘yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o‘rgatish. “Mening ona shahrim” mavzusida lug‘atni faollashtirish. Bolalarda gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

Bolalarga nutqlarida ma'nosi bir xil, ammo aytilishi xilma-xil bo‘lgan so‘zlarni (*ko‘rkam, chiroyli, go‘zal*) tushunib, o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish.

Bolalarda gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish. Tengdoshlari bilan o‘zaro hurmat munosabat bildirishni tarbiyalash.

Mavzu. “Shahrimizning muqaddas ziyoratgohlari”

Maqsad: bolalarga tug‘ilib o‘sgan joylari, ona shaharlaridagi muqaddas ziyoratgohlari haqida savollar berish bilan muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. Bolalarni surat bo‘yicha suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. “Shahrimizning muqaddas ziyoratgohlari” mavzusida lug‘atni faollashtirish. Bolalarda gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

Mavzu. “Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz”

Maqsad: suhbat orqali bolalarga harbiy qo‘shinlarda: sipohlar, tankchilar, dengizchilar borligi, Vatanni himoya qilish uchun ular jasur va kuchli, chiniqqan bo‘lishlari kerakligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash, «O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir degan tushunchani chuqur tushuntirish. Yodlagan she‘rlarni ifodali qilib aytib bera olish. O‘yin orqali jismoniy chiniqtirish.

Mavzu. “14yanvar-Vatan himoyachilari kuni”

Maqsad: bolalarga 14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni ekani, haqidagi suhbat davomida muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. Vatan himoyachilari(askarlar, chegarachilar, piyodalar, tankchilar) mavzusida lug‘at boyliklarini oshirish. Bolalarda gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma'noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

Mavzu. “Mening oilam”

Maqsad: bolalarda oila, uning a'zolarining qadriga yetish, ularni hurmat qilish kabi yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash. Oila sha'nini oqlash: yaxshi oila, ahil oila degan nomni saqlash ularning burchi ekanligini bolalar ongiga singdirish. Oilada bolalar burchi, huquqi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash. Mavzu asosidagi rivoyat orqali o'zlariga xulosa chiqarishga, mustaqil fikr yuritishga undash.

Mavzu. "Ustoz otengdek ulug'"

Maqsad: bolalarga o'z ustozlarning mehnati haqida tushuncha berish. Ustozlar mehribon, ular bolalarni o'z bolalaridek sevadilar. Guruhdagi bolalarning aqlli, dono, odobli bo'lishlarini orzu qilishlarini tushintirish. Mavzuga mos rasmlar topib izohlash.

Mavzu. "Qizil kitob" muhofaza ramzi

Maqsad: vatanimizda yer va yer usti boyliklari, suv, o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish to'g'risida juda ko'p muhim davlat qarorlari qabul qilingani, ana shunday muhim hujjatlardan biri O'zbekiston «Qizil kitobi» hisoblanishi haqida tushuncha berish.

“Qizil kitob” ayrim viloyatlar, mamlakatlar yoki butun dunyo bo'yicha kelajakda xavf ostida turgan o'simlik va hayvonlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan rasmiy hujjat, “Qizil kitob” da hayvonlar soni va uning o'zgarish sabablari, ayrim turlarining ahvoli hamda ularni ko'payishiga, muhofaza qilish bo'yicha belgilangan hamda mo'ljallangan tadbirlarga alohida e'tibor berilgan. “Qizil kitob” ning mohiyati shundaki, tabobat va hayvonot olamining noyob, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar haqida ma'lumot beruvchi hujjatdir. Uning maqsadi jamoatchilik va davlat ijroiya muassasalarining tegishli muammolarini yechish va turlar genofondini saqlab qolishga ko'maklashishdan iborat. “Qizil kitob” vatanimizning o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasidagi eng muhim xayrli ishlaridan biri bo'lib hisoblanishi haqida suhbatlashish.

Mavzu. "Suv muqaddas"

Maqsad: bolalarga suv-bu hayot manbai ekanligi, suvsiz hayot bo'lmasligi, insonlarning suvdan ichish uchun, yuvinish uchun, dehqonchilik, chorvachilik, qurilish va barcha kundalik turmushimizda foydalanishi haqida tushuncha berish. Bolalarga suvdan tejamkorlik bilan foydalanish, uni asrash, oqar ariqlarni toza saqlash, axlat tashlamaslik, suvni isrof qilmaslik har birimizning burchimiz ekanini tushuntirish. Suvning inson hayoti uchun zarurligi, insonga huzur, tabiatga go'zallik bag'ishlashi, eng bebaho boylik ekanligi haqida tushuncha berish.

Mavzu. “Nima yaxshi-yu, nima yomon”

Maqsad: bolalarga «yaxshi odat», «yomon odat» kabi soʻzlarning farqiga borishga oʻrgatish. Uyda, koʻchada, bogʻchada tartib, intizom va ozodalik kabi axloqiy fazilatlarga rioya qiladigan, yaxshi urf-odatlariga amal qiladigan bolalar yaxshi xulqli, odobli bolalar ekanligini tushuntirish. Mavzuni mazmunli rasmlar orqali izohlash.

Mavzu. “Mening huquqlarim”

Maqsad: Maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqlari nimadan iborat ekanligi, yaxshi tarbiyali bola boʻlish, axloqiy qoidalarga rioya qilish, ota-onani hurmatlash kabi vazifalarni anglashlariga koʻmaklashish.

Bolalarga oila huquqi. Ota-onangizni bilish huquqi va ularga gʻamxoʻrlik qilish huquqi. Dam olish va dam olish huquqi. Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi. Taʼlim olish huquqi, “Bolalar oilada yashash va tarbiyalanish, oila aʼzolari gʻamxoʻrligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega”, “Bolalar ism, ota ismi, familiya olish huquqiga ega. Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan qoʻyiladi, “Bolalar oʻz fikrlarini ifoda etish huquqiga egadirlar. Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola oʻz fikrini aytishga hakli” kabi huquqlari haqida suhbatlashish.

Mavzu. “Mening burchlarim”

Maqsad: Burch nima? Burch - bajarish kerak boʻlgan vazifa, majburiyatdir iborasining mazmuni haqida tushuncha berish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning burchlari - yaxshi tarbiyali bola boʻlish, axloqiy qoidalarga rioya qilish, ota-onani hurmatlash kabi vazifalarni anglashlariga koʻmaklashish.

Bolalarga ota-onalari oldidagi burchlari: ota-onalarining nasihatlariga quloq solish, qilayotgan ishlariga koʻmaklashish, ularni ranjitmaslik, ularga qoʻpol soʻzlamaslik, yuzni burishtirmasdan soʻzlash, “Ota-onani hurmatlash” borasida olimu fuzalolarning nasihat, oʻgʻitlari haqida tushuncha berish. (Ota-onangga «uf» dema, qoʻpol soʻzlama, ota-onang ish buyursa yuzingai burishtirma, ota-onang chaqirsalar tabassum qilib «labbay» onajon yoki otajon deb yugurib kel, sen turgan xonaga ular kirsalar oʻrningdan tur, yuqoridan joy ber, ulardan oldin ovqatga qoʻl urma, taom yeyishda ularning hurmatlarini oʻrniga qoʻy, ularga yolgʻon soʻzlama.

Bolalarga bu oʻgʻitlarni chin koʻngildan bajarsalar, ota-ona oldidagi burchlarini bajargan boʻlishlarini anglatish. Bu mavzuda rivoyatlar oʻqib berish.

Mavzu. “8-dekabr Konstitutsiya kuni”

Maqsad: bolalarning 8-dekabr Konstitutsiyani qabul qilingan kuni- biz uchun muqaddas tarixiy qunligi, bu kun yurtimizda bayram kuni deb e'lon qilingani, Konstitutsiya davlatimiz mustaqilligining ramzi, xalq ozodlik timsoli ekani, Konstitutsiyada insonning hayoti, huquqlari va burchlari muqaddas sanalib, ular huquqiy jihatdan kafolatlangani haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

Bolalarga 8-dekabr Konstitutsiyani qabul qilingan kuni, Konstitutsiya kuni bayramiga tayyorgarliklar haqidagi suhbatga muloqatga kirishishlariga imkoniyat berish. Bolalarni davlat ramzlari — bayroq, gerbi tasvirlangan surat bo'yicha hamda har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish xuquqiga ega ekanligi haqidagi suhbat paytida guruh muhokamasida muloqotga kirishish, faol ishtirok etishga undash.

Mavzu. “Yaxshi bola halol va pokdir”

Maqsad: Bolalarda halollik kabi yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash. Hikmatli so'zlardan misol keltirish bilan asar g'oyasini bolalar qalbiga yetkazshp va ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish. Birovlarning mulkiga hiyonat qilish kabi nojo'ya harakatlar o'g'rilik esa og'ir jinoyat ekani, davlat mulki ekanini, birovlarining mulkini o'g'rilagan odam jazosiz qolmasligani tushuntirishga harakat qilish. Inson o'z maqsadiga halol mehnati bilan erishmog'i lozimligini tushuntirish. Halol, poklik, rostgo'ylik, osoyishta, hayotning garovidir, degan iborani bolalar ongiga singdirish.

Payshanba – “Yo'l harakati qoidalari” (bolalar ishtirokidagi yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maqsadida “Xavfsiz piyoda”, “Odobli yo'lovchi”, “Svetofor” kabi mavzularda suhbat olib boriladi).

№	Mavzular
1.	“Piyodalar yurishi uchun ajratilgan joy” mavzusida suhbat

2.	“Yo‘l harakati yo‘nalishini ko‘rsatuvchi belgi(strelka)lardan foydalanish” mavzusida suhbat
3.	“Piyoda o‘tish joyi-svetofor va “Zebra chizig‘i”dan foydalanish” mavzusida suhbat
4.	“Bola avtobusda” mavzusida suhbat
5.	“Piyoda- bolalar uchun xavfsizlik qoidalari” mavzusida suhbat
6.	“Yo‘lda xavfsiz harakatlanish, yo‘l belgilari va svetofordan foydalanish” mavzusida suhbat
7.	“Jamoat transportidan foydalanish” mavzusida suhbat
8.	“Velosiped haydashda xavfsiz harakatlanish” mavzusida suhbat
9.	“Yo‘l belgilarini tashqi ko‘rinishidan bilish” mavzusida suhbat
10.	“Bolalar bog‘chasidan uyga yo‘l” mavzusida suhbat
11.	“Haydovchi va yo‘lovchilar uchun yo‘l belgilari” mavzusida suhbat.
12.	“Velosipedda yurish qoidalari” mavzusida suhbat.
13.	“Transportda o‘zini tutish qonun-qoidalari” mavzusida suhbat
14.	“Ko‘cha qoidalari” mavzusida suhbat
15.	“Svetoforning ranglari va ularning vazifalari” mavzusida suhbat.
16.	“Bizning ko‘cha” mavzusida suhbat
17.	“Yo‘lovchi-bolalar uchun xavfsizlik qoidalari”
18.	“Adashgan-bolalar uchun xavfsizlik qoidalari”

Mavzu: “Piyodalar yurishi uchun ajratilgan joy” mavzusida suhbat

Maqsad: Bolalarni ko‘chada yurish qoidalari, yo‘l harakati qoidalari bilan tanishtirish, yo‘lka nima uchun ajratilganligini, odamlarni ko‘chani kesib o‘tish uchun ajratilgan joydan yurish kerakligini, chorraha nimaligini o‘rgatish. Yo‘lovchilar o‘tadigan yo‘llardan (er osti va yer usti) foydalanishga o‘rgatish.

Mavzu: “Yo‘l harakati yo‘nalishini ko‘rsatuvchi belgi(strelka)lardan foydalanish” mavzusida suhbat

Maqsad:Bolalarga yo‘l harakatini ko‘rsatuvchi strelkalarni nomlash, yo‘l harakati yo‘nalishini ko‘rsatuvchi belgi(strelka)lardan foydalanishga o‘rgatish.

Mavzu: “Piyoda o‘tish joyi-svetofor va “Zebra chizig‘i”dan foydalanish” mavzusida suhbat

Maqsad:Piyoda o‘tish joyi-svetofor va “Zebra chizig‘i”dan foydalanish, bolalarga piyoda, o‘tish joyi va undagi foydalanadigan svetofor va "zebra chizig‘i" haqidagi elementar bilimlarni berish.

Mavzu: “Bola avtobusda” mavzusida suhbat

Maqsad:Bolalarda avtobusda, jamoat transportida yo‘lovchilar bilan munosabat madaniyatini shakllantirish. Yo‘lovchilarning chiqish va tushish uchun ajratilgan eshiklarni aniqlashtirish, transportda o‘zini tutish qoidalarini tushuntirish.

Mavzu: “Piyoda- bolalar uchun xavfsizlik qoidalari” mavzusida suhbat

Bolalarga xavfsizlik qoidalari haqida tushuncha berish. Yo‘l strelkasi bilan ko‘rsatilgan yo‘nalishlar haqida tushuncha berish. Yo‘lni qayerdan va qanday kesib o‘tish mumkinligini ko‘rsatadigan belgilarni (“yer usti o‘tish joyi”, “yer osti o‘tish joyi”).

Mavzu: “Yo‘lda xavfsiz harakatlanish, yo‘l belgilari va svetofordan foydalanish” mavzusida suhbat

Yo‘lda xavfsiz harakatlanish, yo‘l belgilari va svetofordan foydalanish haqida tushuncha berish. yo‘l belgilari va svetofordan foydalanishni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish. Bolalarga ko‘chani qanday qilib kesib o‘tishni tushuntirish, svetofor nima, undan nima uchun va qayerda foydalanish kerakligini tushuntirish,

uning tasviri, belgilari bilan tanishtirish. Svetoforda yongan chiroqlarga qarab harakat qilishga o'rgatish.

Mavzu: “Jamoat transportidan foydalanish” mavzusida suhbat

Bolalarda jamoat transportida yo'lovchilar bilan munosabat madaniyatini shakllantirish. Yo'lovchilarning to'xtash joylarida turishlari, salonga kirish eshigi orqali kirishlari, va chiqishlari, transportda o'zini tutish qoidalarini tushuntirish eshik oldida turmasliklari, qo'llarini ochiq derazalardan chiqarmasliklari, yo'lovchilarning chiqish va tushish uchun ajratilgan eshiklarni aniqlashtirib olishlari zarurligi haqida haqida tushuncha berish.

Mavzu: “Velosiped haydashda xavfsiz harakatlanish” mavzusida suhbat

Velosiped haydashda bolalarni xavfsiz harakatlanish qoidalari bilan tanishtirish. Velosipedda harakatlanayotganda burilish vaqtida tezlik kamaytirilmasa yiqilish mumkinligi haqida tushuncha berish.

Mavzu: “Bolalar bog'chasidan uyga yo'l” mavzusida suhbat

Yo'lda harakat qilishni o'rgatishda bolalarga yuzaga kelishi mumkin bo'ladigan xavfli vaziyatlarni tushuntirish, yo'l harakatini ko'rsatuvchi strelkalarni nomlash, ulardan foydalanish, Bolalar bog'chasidan uyga yo'l (eng yaqin do'kon, shifoxona, kutubxona) mavzusida suhbatlashish.

Mavzu: “Haydovchi va yo'lovchilar uchun yo'l belgilari”

Maktabgacha yoshdagi bolalarni haydovchilar va yo'lovchilar uchun belgilangan yo'l belgilari bilan tanishtirib borish. Ularni:

- Ogohlantiruvchi belgilar;
- Taqiqlovchi belgilar;
- Ko'rgazmali belgilar bilan tanishtirish.

Mavzu: “Velosipedda yurish qoidalari”

Bolalarni velosipedlarda yurish qoidalari bilan tanishtirish.

Bolalarga turli velosipedda yurish qoidalari tasvirlangan vaziyatlarning rasmlarini ko'rsatish, o'zlari va tanishlari bilan sodir bo'lgan voqealarni so'zlab berish.

Mavzu: “Transportda o‘zini tutish qonun-qoidalarini”

Bolalarni jamoat transportida o‘zini tutish qonun-qoidalarini bilan tanishtirish.
Bu qoidalar:

- Avtobus, tramvay, trolleybusning old eshigidan chiqish;
- Kichik yoshdagi bolalarga transport vositasida ota-onasiz yolg‘iz yurish man qilinishini tushuntirish;
- Transportda yurgan vaqtda boshqalarga xalaqit bermasdan so‘zlashish;
- Transport eshigining oldida turish man qilinishini tushuntirish;
- Ochiq oynadan bosh va qo‘lni chiqarish mumkin emasligini qayd etish;
- Katta yoshdagi bolalar kichik yoshdagi bolalar bolali ayol va nogironlarga joy berish kerakligini tushuntirish.

Mavzu: “Ko‘cha qoidalarini”

Maqsad: Bolalarga yo‘l harakati qoidalarini haqida ma‘lumot berish. Bolaga yo‘l qoidalarini rioya etishni o‘rgatish. Ko‘chaning mashina yuradigan qismi bilan piyodalar yuradigan yo‘lkani farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. Svetoforning ranglari va ularning vazifalarini tushuntirish.

Mavzu: “Svetoforning ranglari va ularning vazifalari”

Maqsad: suhbat orqali bolalarga ko‘cha qoidalarini rioya qilish haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Svetoforning ranglari va ularning vazifalari, Svetoforlarda yashil, sariq, qizil va oq rangli yorug‘lik ishoralari qo‘llanilishi, svetoforning doirasimon ishoralari quyidagi ma‘noni bildiradi:

yashil ishora harakatlanishga ruxsat beradi;

miltillovchi yashil ishora ham harakatlanishga ruxsat beradi va uning ta‘sir vaqti tugayotganligi hamda ko‘p o‘tmay taqiqlovchi ishora yonishi haqida axborot beradi.

Sariq ishora harakatlanishni taqiqlaydi.

Miltillovchi sariq ishora ehtiyotkorlik choralari ko‘rgan holda harakatlanishga ruxsat beradi va tartibga solinmagan chorraha yoki piyodalar o‘tish joyi borligidan xabardor qiladi, xavf-xatar haqida ogohlantiradi;

qizil ishora, shuningdek, miltillovchi qizil ishora harakatlanishni taqiqlaydi;

qizil va sariq ishoralarning bir vaqtda yonishi harakatlanishni taqiqlaydi va ko‘p o‘tmay yashil ishora yonishi haqida axborot berishi haqida tushuncha berish.

Mavzu: "Bizning ko‘cha"

Maqsad: bolalarga ko‘cha—bu ikki chetida turli binolar qurilgan, odamlar, mashinalar harakat qilishi uchun mo‘ljallangan joy ekani, bunday ko‘chalar juda ko‘pligi, ularning har qaysisiga adashtirib yubormaslik uchun nom berilgani,

ko‘chaning transport va piyodalar qatnaydigan qismi yo‘l deyilishi, yo‘lning qatnov qismidan mashinalar yurishi, piyodalar uchun ajratilgan yo‘lkalardan odamlar o‘tishi, ko‘chada yurishning o‘z qoidalari borligi, yo‘lning transport harakatlanadigan qismidan zinhor yurish kerak emasligi, yo‘lning piyodalar uchun mo‘ljallangan joydan o‘tish kerakligi, svetoforming chiroqlarining belgilariga qarab harakatlanish kerakligi, yo‘lovchilar tomonidan ko‘chada yurish tartibi buzilish holati ro‘y bersa, nazoratchi yo‘lovchilarni to‘xtatib, ularga ko‘chada yurish tartibini tushuntirish haqida tushuncha berish.

Mavzu: “Yo‘lovchi-bolalar uchun xavfsizlik qoidalari”

Maqsad: ko‘chada yurishning o‘z qoidalari borligi, avtomobil, trolleybus, avtobus yo‘lning qatnov qismida harakatlanishi, piyodalar yo‘lning chap, o‘ng tomonida piyodalar uchun joy ajratilgani, bu joy yo‘lning cheti deb atalishi, piyodalar doimo yo‘lning chetidan yurishlari kerakligi, yo‘lda ketayotganda ziyrak bo‘lib, shoshmasdan yurish kerakligi, ko‘chada yurganda faqat yo‘lakdan yoki yo‘lning chetidan yurish kerakligi, yo‘lning transport harakatlanadigan qismidan zinhor yurish kerak emasligi, yo‘lning narigi tomoniga o‘tishda piyodalar uchun mo‘ljallangan joydan o‘tish kerakligi, piyodalarning ko‘chadan kesib o‘tish joylari yo‘lning transport yuradigan qismida chizilgan chiziqlar bilan ajratilishi, bu piyodalar o‘tish joyining belgisi ekani, ko‘chani faqat piyodalar uchun mo‘ljallangan joyidan kesib o‘tish kerakligi, piyodalar o‘tish joyi “zebra” shaklidagi chiziqlar bilan belgilanganligi, svetoforming qizil chirog‘i piyodaga “To‘xta”, svetoforming sariq chirog‘i piyodaga hozir ko‘chadan o‘tishga ruxsat beriladi, svetoforming yashil chirog‘i piyodaga piyodaga “Yo‘l ochiq” deyishi haqida tushuncha berish.

Mavzu: “Adashgan-bolalar uchun xavfsizlik qoidalari”

Maqsad: maktabgacha yoshdagi bolalarga ko‘cha qoidalariga rioya qilish haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Svetoforming ranglari va ularning vazifalari, bolalarga yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimi vazifalari haqidagi tushunchalarini aniqlash. Adashib qolgan bolalarni qanday harakat qilish, o‘zi haqidagi birlamchi ma’lumotlarni yod olish va kattalarga yetkazishga o‘rgatish, adashib qolganda o‘zini yo‘qotmaslik, kimlarga muroojat qilishni bilishni o‘rgatish.

Juma – “Bola xayoti xavfsizligi asoslari” mavzularida (haftaning shanba va yakshanba kuni dam olish kunlari bo‘lganligi sababli, bolalar uyda yolg‘iz qolishlari yoki ota-onalar bilan ko‘ngil ochar maskanlariga borishlari, suv havzalarida cho‘milishlari va boshqa holatlarni inobatga olib, bolalarga begona shaxslar bilan muloqat qilganda, adashib qolganda qanday harakat qilish lozimligi to‘g‘risida suhbat o‘tkiziladi).

№	Mavzular
1.	“Ayrim narsalarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish va ulardan foydalanishni man qilish”.
2.	“Hayotda uchraydigan tasodifiy vaziyatlar”
3.	“Agar bola ko‘chada yo‘qolib qolsa”
4.	“Yong‘in”
5.	“Zilzila”
6.	“Suv toshqini”
7.	“Zaharli o‘simliklar”
8.	“Hayvonlar bilan muloqot”
9.	“Favqulodda holatlarda o‘zni tutish qoidalari”
10.	“Yashil do‘stlar”

Mavzu: “Ayrim narsalarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish va ulardan foydalanishni man qilish”

Bollalarga uy- ro‘zg‘orda foydalanishda xavf tug‘diradigan narsalar uch guruhga bo‘linishi haqida tushuncha berish: Ular:

- Qat‘iyan taqiqlangan narsalar: gugurt, gaz plitasini yoqish, pechka yoqish, elektr rozetkalari va elektr jihozlar.

Bola har qanday vaziyatda ham mustaqil ravishda gugurt ishlatishda, gaz plitasini yoqishi, elektr jihozlaridan foydalanishi mumkin emasligini tushuntirish. Tushuntirish davomida turli badiiy adabiyotlar, o‘yinlardan misollar keltirish.

- Bolalar yoshini inobatga olgan holda ehtiyotkorlik bilan to‘g‘ri foydalanish kerak bo‘lgan narsalar: igna, qaychi, pichoq;
Xavf tug‘diradigan narsalar, qat‘iyan taqiqlangan narsalarga teginmaslik: uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan kimyoviy narsalar, dori- darmonlar, spirtli ichimliklar, sigareta, ishqorlar, kesadigan, sanchiladigan narsalar.

Bu narsalardan bolalarning teginishlari qat‘iyan man qilinganligi haqida ogohlantirish.

Mavzu: “Hayotda uchraydigan tasodifiy vaziyatlar”

Bunday vaziyatlardan chiqish uchun telefondan foydalanish qonun-qoidalarini, tanish va yaqin insonlarning telefon raqamlarini bilishlariga erishish. Bu holatlar bolalarga tasodifiy vaziyatlarda nimadandir va kimdandir

qo‘rqqanlarida kerak bo‘lib qolishini tushuntirish. Bolalarni telefon bilan o‘ynashni tasodifan telefon qilishdan farqlashga o‘rgatish. Telefon orqali haqiqiy so‘zlashishni maxsus treninglar jarayonida mustahkamlash va ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish.

Mavzu: “Agar bola ko‘chada yo‘qolib qolsa”

Agar bola ko‘chada yo‘qolib qolsa, darhol kattalarga murojaat qilish lozimligini va u yo‘qolib qolganligini aytishni uqtirish, o‘z manzil-gohini, telefon raqamini, o‘z ismini va familiyasini bilishi kerakligini uqtirish.

Mavzu: “Yong‘in”

Bolalarga yong‘in- bu katta ofat ekanligini tushuntirish. Yong‘inning kelib chiqish sabablari va oldini olish yo‘llari haqida tushuncha berish. Yong‘inga qarshi qonun-qoidalar bilan tanishtirish. Yong‘in o‘chiruvchilarning xavfli mehnatlari bilan tanishtirish, ularga nisbatan muhabbat uyg‘otish. Olovning zararli va foydali tomonlarini tushuntirish. Kuyish jarayonida beriladigan birinchi yordam elementlari bilan tanishtirish. Yong‘in chiqaruvchi narsalar bilan tanishtirishda davom etish. Yong‘in chiqqan vaqtda

“10-01” telefon raqamiga telefon qilish lozimligini uqtirish.

Mavzu: “Zilzila”

Bolalarni yer qimirlash va uning belgilari bilan tanishtirish, yer qimirlaganda bolalar o‘zlarini qanday tutishlari kerakligi haqida tushuncha berish. Yer qimirlagan vaqtda berkinish mumkin bo‘lgan xavfsiz yerlar bilan tanishtirish.

Mavzu: “Suv toshqini”

Bolalarga sel va ko‘chkilar haqida tushuncha berish. Sel va ko‘chki vaqtida o‘z hayotlarini saqlash uchun xavf-xatarsiz joy bilan tanishtirish. Sel va ko‘chki vaqtida olgan jarohatlarga ko‘rsatiladigan birinchi yordam elementlari bilan tanishtirish.

Mavzu: “Zaharli o‘simliklar”

Bolalarga yo‘l chetlarida, dalalarda, uy atroflarida o‘sadigan o‘simliklar zaharli bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida tushuncha berish. Bu o‘simliklarning 1-2 vakili bilan tanishtirish. Bolalarda hamma narsani bilib-bilmay iste‘mol qilish mumkin emasligi, zararli odatlardan saqlanish lozimligi to‘g‘risidagi tasavvurini kengaytirish.

Mavzu: “Hayvonlar bilan muloqot”

Bolalarga hayvonlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish to‘g‘risida tushuncha berish. (Masalan, ko‘chada qarovsiz qolgan kuchuk va mushuklarni boqish mumkin emasligi, shuningdek, ularga qo‘l bilan tegish, qo‘lga olish mumkin emasligini aytish .Ular bilan o‘ynaganda ehtiyot bo‘lish kerakligini tushuntirish) Ayniqsa, qishloq sharoitida juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari kerakligi to‘g‘risida tushuncha berish. Bu hayvonlarning jahlini chiqarmaslik, ularni qiynash mumkin emasligi to‘g‘risida tushuncha berish.

Mavzu: “Favqulodda holatlarda o‘zni tutish qoidalari”

Maqsad:Tabiiy unsurlar (olov, suv, havo, yer) haqidagi bilimlarni umumlashtirish.

Favqulodda vaziyatlarda (yong‘in, bo‘ron, zilzila, suv toshqini, ko‘chkilar) o‘zini tutish qoidalari haqida tasavvur hosil qilish.

O‘t o‘chirish xizmatiga (Favqulodda vaziyatlar vazirligi) qo‘ng‘iroq qilish, tez yordam chaqirish, do‘stlar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan yordam so‘rash uchun telefondan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Mavzu: “Yashil do‘stlar”

Maqsad: Maktabgacha yoshdagi bolalarga suhbat orqali bolalarda tabiatni asrash va avaylash hissini uyg‘otish.Bolalarning yashil do‘stlarning ahamiyati haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Bolalarga «Bir olma tarixi» hikoyasini o‘qib berish orqali bog‘dorchilik ishlariga qiziqish uyg‘otish. O‘yin orqali daraxtlarning barglarini farqlashga o‘rgatish.

4-ILOVA

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish sohasining kutilayotgan natijalari asosida ta‘limiy o‘yinlar kartotekasi”

Yirik motorikani rivojlantiruvchi o‘yinlar

No	Mavzular
1.	Oydin lola g‘oz bo‘ldi
2.	“Qarmoqcha” o‘yini
3.	“Bo‘ri zovurda” o‘yini
4.	“Bekinmachoq” o‘yini
5.	“Quvlashmachoq” o‘yini
6.	“Ona tovuq va jo‘jalar” o‘yini
7.	“Uchdi , chopdi , sakradi” o‘yini

8.	“Ayyor tulki” o‘yini
9.	“Sapalak” o‘yini
10.	“Arqon tortish” o‘yini

“Oydin lola g‘oz bo‘ldi” o‘yini

Maqsad: Bolalarni chaqqonlikka o‘rgatish, muskullarini rivojlantirish. Sovol-javobda aniq ravon javob berishga o‘rgatish.

O‘yin borishi: Bu o‘yinda 7-10 bola ishtirok etadi. Ona g‘oz va g‘ozlar hamda tulki tayinlanadi. Ona boshi-ona g‘oz: Oydin lola g‘oz bo‘ldi, o‘yinimizga soz bo‘ldi

Po‘lat och tulki bo‘ldi,
g‘ozlarni kutib turdi.
G‘ozlar qochdi daladan,
qo‘rqib tulki boladan
Tulkimiz etolmadi,
g‘ozlarni tuta olmadi .

Shu so‘zlardan keyin maydon bo‘ylab yuguradilar. Tulki g‘ozlarni tutishga harakat qiladi. Tutilgan g‘oz tulki rolini bajaradi.

Ona boshi-ona g‘oz, g‘ozlar va tulki roliga ajratiladi. G‘ozlar ona g‘oz qarshisida so‘zlari mos harakat qilishadi. Ayyor tulki bir chetda ularni poylab turadi.

“Qarmoqcha” o‘yini.

Maqsad: Bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish, diqqatni jamlab o‘ynashga o‘rgatish.

Kerakli jihozlar: O‘yin uchun 3-4ta arqon kerak bo‘ladi. Arqonning bir tomonida qum yoki kepak solingan xaltacha bog‘lab qo‘yiladi.

O‘yinning borishi: Hamma bolalar doira hosil qilib turadilar, boshlovchi doira o‘rtasida turib arqonchani o‘z atrofida aylantira boshlaydi. Arqonni aylantirganda xaltacha baland ko‘tarilmasligi lozim. O‘yinchining oyoqlariga xaltacha tegib ketmasligi uchun sakrab turadi. Arqon uchida bog‘langan xaltacha o‘yinchining oyoq uchi tegsa u qarmoqqa ilingan hisoblanadi. U doira o‘rtasiga chiqadi va arqonni boshlovchi sifatida aylantiradi. O‘yin oddiy qiziqarli bo‘lganligi uchun bolalar o‘z mahoratlarini namoyish qila oladilar. O‘rtadagi o‘yinchilar bu o‘yinda uzoq turib qolmasligi uchun o‘yinchini tezroq qarmoqqa ilintirib olishga harakat qilinadi. Arqonni aylantirish tezlatiladi yoki pasaytiriladi bu o‘yin 5-6 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan.

“Bo‘ri zovurda” o‘yini

Maqsad: Bolalarni chaqqon harakat qilishga o‘rgatish, tezkorlik malakalarini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: o‘yin maydoncha, echki niqoblari, rangli bo‘rlar.

O‘yinning borishi: O‘yin ochiq maydonchada 6-7 yoshli bolalar bilan olib boriladi. Hovlida oralig‘i 10-15 sm bo‘lgan ikki paralel chiziq chizib qo‘yiladi. Bu chiziq «Zovur» zovurdan 2-3 qadam nari, maydoncha chetiga «Echkilar» uchun uycha chiziladi. Ishtirokchilardan biri-biri, qolganlari esa echkilar rolini bajaradilar, Onaboshining «Bo‘ri zovurda» chaqirig‘iga, echkilar uylaridan chiqib zovurga sakraydilar. Echkilar sakrab o‘tayotganda bo‘ri ularni ushlab olishga harakat qiladi. Ushlangan echkilar zovurda turadi. O‘yin 3-4 marta takrorlanadi. Ushlanmagan echkilarni bo‘ri zovurdan chiqib quvlaydi.

“Bekinmachoq” o‘yini

Maqsad: Bolalarni hamjihatlikda harakat qilishga odatlantirish.

Kerakli jihozlar: o‘yin maydoncha va o‘tirgichlar

O‘yinning borishi: O‘yin qatnashchilari ikki guruhga bo‘lingan holda maydonda o‘yin olib boradilar. Birinchi guruh bolalari o‘yin boshlangan joyda qoladi. Ikkinchi guruh bolalari esa maydondan uzoqroq joyga (o‘tirgichlar orqasiga) berkinadilar. Birinchi guruh bolalari ularni izlaydilar. Agar ularni topsalar yana o‘yin boshlangan joyga qaytib keladilar. Yashiringan bolalarni topa olmasalar: “Engildik chiqinglar” deb aytadilar. Yutgan guruh o‘yinni davom ettiradi. Ya‘ni boshqatdan berkinadi.

“Quvlashmachoq” o‘yini

Maqsad: Bolalarni chaqqon harakat qilishga va tezlik bilan yugurishga, masofani chamalashga o‘rgatish

Kerakli jihozlar: o‘yin maydoncha

O‘yinning borishi: o‘yinchilar juft-juft bo‘lib qatorga saflanadilar, qator oldida ikki uch metr narida tutuvchi qilib saylangan bola oldinga qarab turadi. Bolalar bir ikki uch degandan keyin bolalar qator oxiridan boshlab qo‘llarini qo‘yib yuboradilar va oldinga yugurib ketadilar. Biri chap tomondan, ikkinchisi o‘ng tomondan yuguradilar. Ular qator oldiga yugurib chiqadilar va yana qo‘l ushlab tutuvchining oldiga turib olishga harakat qiladi. Tutuvchi bolalar qo‘l ushlab olishdan avval ulardan birini tutib olishga harakat qiladi. Agar u buning uddasidan chiqsa o‘zi tutgan bola bilan juft bo‘lib olib qator oldiga borib turadi. Sheriksiz qolgan bola tutuvchi bo‘ladi. Agar tutuvchi bola xech kimni tuta olmasa yana bir marta harakat qiladi. O‘yin shu tariqa davom etadi. O‘yin barcha bolalar yugurib chiqqandan so‘ng tugaydi. Shundan keyin yangi tutuvchi saylanadi.

“Ona tovuq va jo‘jalar” o‘yini

Maqsad: Bolalarni berilgan savolga aniq javob qaytarishga o‘rgatish. Qo‘l, oyoq muskullarni rivojlantirish.

O‘yinning borishi: O‘yinda bir guruh bolalar qatnashadilar. Ona boshi: ona tovuq, jo‘jalar va burgut tanlanadi. Ona boshi – ona tovuq jo‘jalarini don terib yeyishga chaqiradi.

Ona Tovuq:

Chiqdi tovuq sayrga

Barra maysa o‘tloqqa,

Sariq jajji jo‘jalar

Ergashdilar tovuqqa,

Qo-qo-qo-qo-qo-qo

Ketmang asta uzoqqa

Don qidiring yemoqqa

Shu so‘zdan keyin jo‘jalar don qidirib tarqalishadi. Ona tovuq esa ularning atrofida qo-qo-qo-qo-qo, deb qo‘riqlab turadi. Shu vaqt katta burgut uchib keladi.

Uching, qoching jo‘jalarim

Burgut uchib keldi.

Ushlangan jo‘ja burgut rolini ijro etadi.

“Uchdi, chopdi, sakradi” o‘yini

O‘yindan maqsad: Bolalarni bir joydan turib qo‘l va oyoq harakatlarni bajarishga o‘rgatish diqqat va xotiralarni o‘stirish.

O‘yinning borishi: Bolalar doira shaklda tiziladilar. Doira o‘rtasida ona boshi o‘yinni boshqarib turadi. Ona boshi o‘yinchilarga qarata “chumchuq”- desa qatnashuvchilar “uchdi-uchdi” — deb qo‘llarini ikki yonga cho‘zib silkitadilar. Ona boshi “samolyot, laylak, qurbaqa” desa bolalar aytilgan so‘zga qarab harakat qilishlari kerak. Bolalar aytilgan so‘zga qarab harakatlarni to‘g‘ri bajara olmasa, o‘yindan chiqadilar.

O‘yin oxirida qolgan bola g‘olib hisoblanadi va ona boshi qilib saylanadi.

O‘yinning ahamiyati: Bolalar qushlar, sudralib yuruvchilar, hayvonlar hamda xasharotlar nomlarini to‘g‘ri aytishni o‘rganadilar.

“Ayyor tulki” o‘yini

O‘yindan maqsad: Bolalarni chaqqon harakat qilishga, sezgir bo‘lishga, signalga rioya qilishga odatlantirish.

O‘yinning borishi: Bu o‘yinda 7-10 bola qatnashishi mumkin. Bolalar doira bo‘lib turadilar. Doiradan tashqarida esa tulkining uyi belgilanadi. Tarbiyachining signali bilan bolalar ko‘zlarini yumadilar. Tarbiyachi esa doira orqali aylanib chiqadi. Ularga bildirmay bittasiga tegib o‘tadi. Qo‘l tekkizgan bola ayyor tulki bo‘ladi. Tarbiyachining signali bilan ko‘zlarini ochadilar va kim ayyor tulki bo‘lgani topadilar. “Ayyor tulki kaerdasan”, deb chaqiradilar. Tarbiyachi oxirgi marta “Qaerdasan?” deb chaqirishi bilan, tulki doira o‘rtasiga yugurib chiqadi va qo‘lini yuqoriga ko‘tarib «Men bu yerdaman» — deydi. Bolalar maydon bo‘ylab yugurib keladilar. Tulki esa ularni tutishga harakat qiladi. Tutilgan bolani uychasiga olib keladi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

O‘yinning ahamiyati: Bu o‘yin orqali bolalar hushyorlikka, ziyraklikka o‘rganadilar hamda ularning idroki, tafakkuri rivojlanadi .

“Sapalak” o‘yini

Maqsad: bolalarni muvozanat ushlab bir oyoqlab yurishga va masofani chamalay olishga o‘rgatish.

Kerakli jihozlar: o‘yin maydoncha, va silliq toshchalar

O‘yinning borishi: O‘yindan avval 5 juft katak 2 qator qilib chiziladi. Shundan so‘ng sanash yo‘li bilan o‘yinchilar ketma-ketligi aniqlanadi. Boshlovchi kichkinaroq yassi toshni tanlaydi. So‘ngra o‘yinchi bir oyoqda chiziq boshidan sakrab, sapalakni katakka tepib, chiziqdarga tushirmasdan olib o‘tadi. Kim oldin sapalakni hamma kataklariga ketma-ket oyoq bilan tepib, olib o‘tsa o‘sha g‘olib chiqadi.

“Arqon tortish” o‘yini

Maqsad: bolalarni muvozanat ushlab arqon tortishga o‘rgatish.

Kerakli jihozlar: katta uzun arqon

O‘yinga tayyorgarlik. Har bir jamoani orqasida to‘p osib qo‘yiladi. O‘yinchilar teng ikki jamoaga bo‘linadi. Arqon polga qo‘yilgan.

O‘yinning borishi:

Bolalar tarbiyachining buyrug‘idan keyin arqonni olib, o‘z tomonlariga tortib olishga harakat qiladi. Vazifani birinchi bo‘lib bajargan jamoa yutgan hisoblanadi.

Mayda motorikani rivojlantiruvchi o‘yinlar

№	O‘yin mavzulari
1.	Kim tez o‘raydi
2.	Besh tosh
3.	Mozaika
4.	Rangli sharchalar
5.	Turli lotolar
6.	“Rangidan top” o‘yini
7.	“Berkitilgan shakllarni top”
8.	“Savatcha”ni yasatamiz
9.	“Rangli tomchilar”
10.	“Munchoqlarni teramiz”

“Kim tez o‘raydi”

O‘yindan maqsad.

Bolalarni tezkorlikka, epchilikka o‘rgatish ularning jismoniy rivojlanishini oshirish.

O‘yin uchun kerakli jihozlar.

Ikki bo‘lak arqon, uzunligi 4-5 metr, to‘rtta chillak , qalinligi 3 sm.

O‘yinning borishi.

O‘yin 6-8 nafar bola, turt guruhga bo‘linib o‘ynashadi.

O‘yin uchun ikki bo‘lak arqon uzunligi 3-4 m va turta chillak kerak bo‘ladi.

Bolalarni turt tomonda “plyus” shaklda joylashtiriladi. Turt tomondan bolalar “boshla ” deyishi bilan arqoni o‘rab markazga qarab kelishadi. Markazga kim birinchi etib kelsa, o‘sha bola g‘olib hisoblanadi.

O‘yin jarayonidagi erishilgan natija.

1. Jismoniy:

- Qo‘llarni to‘g‘ri va tez harakatlantirish malakasi rivojlanadi.
- Qo‘l mayda motorikasi rivojlanadi.
- Iroda charxlanadi.
- Tezkorlikka, epchilikka o‘rganadi.

2. Ijtimoiy ruhiy:

- “Lider ” bo‘lishga intiladi.

3. Ma‘naviy:

- Harakatli o‘yin orqali milliy ruhni his qilish, chaqqonlik.
-

“Besh tosh”

O‘yinning maqsadi: bolalarning o‘ylash, fikrlash, so‘zlashish qobiliyatlarini rivojlantirish. Qo‘l va barmoqlarni chaqqon harakatlantirishga o‘rgatish.

O‘yin uchun kerakli jihozlar:

Mayda toshlar, xaltacha.

O‘yinning borishi:

Ikki yoki undan ortiq qizlar qo‘llariga xurjunlaridan beshtadan tosh olishadi. Toshlarini ikkita qo‘llari ustiga qo‘yib, mo‘ljallangan doira ichiga toshlarni tashlaydilar.

Doira ichidagi 1 ta toshni yuqoriga uloqtirib, qolgan doiradagi toshlarni navbat bilan yerni elab qo‘liga ilib oladi.

Boshlovchi qiz o‘yin davomida ushbu qo‘shiqni aytadi:

Bir tolning yaprog‘i,

*Ikki tolning yaprog‘i,
Uch tolning yaprog‘i,*

*To‘rt dedim, qush keldi,
O‘yin toshim besh keldi.*

Har bir yalama qilib olingan toshni xaltachaga solinadi.

O‘yin jarayonida tepaga otilgan tosh tushirib yuborilsa, yoki ilib ololmasa o‘yin to‘xtatildi. O‘yin so‘ngida xaltachadan toshlar sanaladi. Kimda tosh ko‘p bo‘lsa, g‘olib deb topiladi.

O‘yin jarayonidagi erishilgan natija.

;

- qo‘l va barmoqlar motorikasi rivojlanadi;
- mo‘ljalga olish malakasi shakllanadi.

diqqatiga jamlanadi, tafakkuri charxlanadi. (Sangivirik bolalarda qo‘llansa natija beradi).

3.Ma‘naviy :

“Mozaika”

Maqsad: ko‘ruv idrokini o‘stirish, mayda motorika, ko‘rgazmali tafakkur, tasavvur hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

• **Tarkibi:** diametri 20 mm. li 160 ta detal. Ulardan sarig‘i 32 ta, qizili 32 ta, yashili 32 ta, ko‘ki 32 ta, oqi 32 ta. 21x 24, 5 sm o‘lchamli 160 ta teshikchali polotno

• **Materiali:** idish yupqa kartondan tayyorlagan.

“Rangli sharchalar”

Maqsad: bolalarning sanash malakasini mustahkamlash, rangli sharchalarni sanash vositasida masala va misollar tuzib, ularni yechishga o‘rgatish. Mayda motorika, mantiqiy tafakkurga doir tushunchalarni to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish.

• **Materiali:** 10 ta pog‘onali simlar o‘rnatilgan tik qurilma. Sim va ko‘k, qizil, sariq va yashil sharchalari yog‘ochdan, qalin qilib laklangan.

“Turli lotolar”

Maqsad:

- Ko‘ruv idroki, diqqat, xotira, mayda motorikani rivojlantiradi. Tevarak atrof bilan tanishtirishga yordam beradi. Masalan:
- «O‘simliklar dunyosi».
- **Materiali:** Loto 270x180 o‘lchamli 2mm qalinlikdagi daraxtlar, gullar, mevalar va qo‘ziqorinlar tasvirlangan 6ta kartochkadan iborat. SHuningdek, 2mm qalinlikdagi 90x90 mm o‘lchamli 48 ta yog‘ochli kartochkalari bor. 5-7 yoshli bolalarga mo‘ljallangan.

“Sehrli qopcha” o‘yini.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarning leksik grammatik nutqini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish, bilish jarayonlarni rivojlantirish, mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish.

Ta‘limiy maqsad: O‘yin haqida tushuncha berish, predmetlar nomini nomlashga, ularga ta‘rif berishga o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Qo‘l ko‘tarib javob berishga o‘rgatish. Ziyraklik, og‘zaki javobda hozirjavoblikni o‘stirish.

Jihozlar: O‘tilgan mavzular yuzasidan turli xil predmetlar mulyajlari.

O‘yinning borishi: Qopchaga turli xildagi predmet va narsalar mulyajlar solib qo‘yiladi. Bolalar birma bir chiqib qopchadan predmetlarni oladilar. Kimga qanday predmet tushsa uni nomini aytib unga tarif beradi.

“Berkitilgan shakllarni top”

Mazkur metodika maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatining ko‘chishi va idrokini aniqlashda qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yin.

Metodika materiali: turli geometrik shakllar.

Ko‘rsatma: Quyida turli xil geometrik shakllar berilgan. Har bir shaklning nechtdan keltirilganini aniqlang va sanang.

“Savatcha”ni yasatamiz

Mashq maqsadi: kichkintoyning asosiy barmoqlarida (bosh barmoq, ko‘rsatkich va o‘rta barmoq) motorikani rivojlantirish. Bolani yozishga o‘rgatish. Kerakli jihozlar: savatcha yoki qalin karton qog‘oz (to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lishi kerak), kir qistirgich. Savatchaning cheti juda qalin bo‘lmasligi lozim. Bolaga kir qistirg‘ich solingan savatcha beriladi. Tarbiyachi unga har uch barmoq

oralig'idan keyin kir qistirg'ichni savatcha chetiga terib chiqishni taklif qiladi. Bola topshiriqni mustaqil bajaradi. Izoh: kichkintoy yozish malakasiga ega bo'lishi uchun avval unda mayda qo'l motorikasi rivojlangan bo'lishi lozim. Ya'ni, u qalam yoki ruchka ushlaganda yengil va oson bo'lishi kerak. Mashqni ko'p marotaba takrorlash bolada barmoqlarni yaxshi harakatlantirish hamda o'ng va chap qo'lni farqlashga o'rgatadi. Kuzatish jarayonida uning o'ng yoki chapaqay ekanligi ham aniqlab olinadi. Tarbiyachi bolaning ikkala qo'lda ishlashini nazorat qilishi kerak.

“Rangli tomchilar”

Maqsad: bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirish. Barmoqlar harakatini mustahkamlash. Diqqatni jamlashga o'rgatish hamda qo'llarni yozishga tayyorlash.

Kerakli jihozlar: patnisda 12 katakchali suv muzlatgich idishi qo'yiladi. Har to'rt katakchani ustiga qizil, ko'k va sariq rang belgisi qo'yiladi. Patnisda uch xil rangli stakanda suv qo'yiladi. (Suvga qizil, sariq, ko'k rangda iste'mol bo'yog'i solib rang beriladi). Har bir stakanda suv tomizgich (pipetka) turadi.

Mashqning borishi: bolalar stakandagi rangli suvdan pipetka yordamida suv olib, rangiga mos muzlatkich idishiga tomizadi. Asta-sekin suv muzlatkich katakchalari rangiga mos suv bilan to'ldiriladi. Izoh: bu mashq orqali nafaqat bolada barmoqlar harakati rivojlantiriladi, balki ranglarni farqlaydi hamda ko'p va kam miqdor tushunchalarini ham anglaydi. Ularda taqqoslash va solishtirish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, har xil rangli tomchilarni tomizish ularda psixomotorikani rivojlantiradi.

“Munchoqlarni teramiz”

Mashq maqsadi: bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirish va mustahkamlash. Koordinatsiya va qo'llarni yozishga tayyorlash.

Kerakli jihozlar: patnisda munchoq solish uchun bir necha katakchali quticha (sovun qutisidan ham foydalanish mumkin), pinset va turli rangdagi munchoq solingan stakan. Munchoqlar qutichada to'la bo'lishi uchun bir xil miqdorda bo'lishi kerak. Mashqning borishi: bola o'ng yoki chap qo'li bilan (agar chapaqay bo'lsa) pinset yordamida stakandagi munchoqlarni qutichaga soladi. Agar qutichalar to'lsa, munchoqlarni olib yana stakanga qaytarib solishni taklif etish mumkin.

Izoh: mashq barmoqlar harakatini shunday rivojlantiradiki, bola keyinchalik qiynalmasdan mayda harflarni yoza oladi. Mashqni bajarish jarayonida bolada diqqat barqaror bo'ladi hamda o'z ichki hissiyotlarini nazorat qila olish ko'nikmasi rivojlanadi. Agar munchoq qo'lidan tushib ketsa, u mustaqil ravishda o'z xatosini o'zi tuzatishi kerak. Mashq boladan aniq va to'g'ri harakat bajarishni talab etadi.

Sensomotorikani rivojlantiruvchi o'yinlar

№	O‘yin mavzulari
1.	“Mazasidan top” o‘yini
2.	“Tayoqchalar to‘plami»
3.	Rivojlantiruvchi markaz
4.	“Tovush qayerdan kelyapti”
5.	“Buben ovozini eshitib harakatlanamiz” o‘yin mashqi
6.	“Pantomima” o‘yini
7.	“Shakllarni birlashtir”
8.	“Erkalatib ayt” o‘yini
9.	“Rangidan top” o‘yini
10.	“Sensorli (taktil) xaltachalar”

“Mazasidan top” o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarning impressiv, ekspressiv nutqini, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, sezgi analizatorlarini rivojlantirish.

Ta’limiy maqsad: mevalar haqidagi bilimlarni kengaytirish. Mazasidan topib, farqlashga o‘rgatish, ta’ m bilish, sezish, qobiliyatlarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: mevalarni tozalab yuvib yeyish kerakligini o‘rgatish. Bolalarda tozalik, ozodalik xususiyatlarini tarbiyalash.

Jihoz: mevalar, rag‘batlantiruvchi fishkalar .

O‘yinning borishi: tarbiyachi bolalarning ko‘zlarni yumib likopchadagi bo‘lakchalarga bo‘lingan mevalardan sanchqi yordamida olib bolalarning og‘ziga soladi.

1 bola eb bo‘lgach, mazasidan topib, bu qaysi meva ekanligini aytishi kerak. Barcha bolalar bilan bajariladi.

“Tayoqchalar to‘plami» o‘yini

Maqsad: rang, kattalik, fazoda joylashuv, hajm, modellashtirish va shakldan yangi shakl hosil qilishga o‘rgatish. Mantiqiy tafakkur, tasavvur va xayol jarayonlarini rivojlantirish.

Materiali: To‘rtburchak shaklidagi karton quticha, ichida turli kesma shaklidagi rangli silindrsimon tayoqchalar

Rivojlantiruvchi markaz

Maqsad: Sensomotorika, ko‘z chamalashga doir malakalar, intellektual qobiliyatni o‘stirish. Didaktik stol vositasida yakka ravishdagi mashg‘ulotlardan

tashqari guruhli mashgʻulotlar ham tashkil etish mumkin. SHunindek, rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar bilan korreksion ish jarayonida ham qoʻllash mumkin.

Tarkibi: majmua 10ta qismlardan iborat.

-15x15 oʻlchamli 5ta geometrik shakldagi teshikchalari bor koʻchiriluvchi koʻk rangli taxta;

-15x15 oʻlchamli bogʻich bogʻlashga moslashtirilgan 24 ta teshikli qizil rangli taxta;

-5 ta hajmli geometrik shakllar;

-8 ta silindrsimon qismlar;

-8 ta yassi geometrik shakllar;

-5ta yassi doira shaklidagi turli diametrli yassi shakllar;

-xaltacha;

-bogʻich;

-yogʻochli ustuncha;

Oʻyin maydoni taxtadan tayyorlanadi, 8 mm dan kam boʻlmagan qalinlikda lak bilan qoplanadi. Oyoqlari taxtadan. Oʻlchami 400X400X115 mm.

“Tovush qayerdan kelyapti”

Maqsad: Sezgi va eshituv diqqatini rivojlantirish.

Bolalar xonaning bir tomonida guruh boʻlib tik turadilar. Pedagog ularga devorga qarab turishni va oʻtirmaslikni taklif qiladi. SHu payt pedagog qoʻlidagi qoʻngʻiroqchani oʻng tarafda, chap tarafda, tepada yoki pastda jiringlatadi. Pedagog bolalardan qoʻngʻiroq qayerda jiringlayapti, deb soʻraydi. Bolalar tovushni qayerdan kelayotganini aytadilar. Oʻyin shu tariqa davom etadi.

“Buben ovozi eshitib harakatlanamiz” oʻyin mashqi

Maqsad: Sezgi va eshituv diqqatini rivojlantirish. Sezgi organlari yordamida harakatlarni tartibga solish.

Borishi: Bolalar doira shaklida turadilar. Tarbiyachi bolalarga buben ovozi eshitib harakatlarini tartibga soladilar. Bolalarga buben ovozigacha qarab harakatlanishni taklif etiladi. Buben sekin chalinsa bolalar sekin yuradilar, buben tezroq chalinsa bolalar tezroq yuradilar, buben chalinishi yanada tezlashsa yugurishga oʻtadilar. Tarbiyachi buben ovozi eshitib sekinlashtiradi, bolalar sekin yurishga oʻtadilar. Buben chalinishi toʻxtatilsa bolalar yurishdan toʻxtaydilar.

Bu oʻyin mashqi bolalar uchun juda qiziqarlidir. Bolalar buben ovozi eshitib harakatlarni tartibga solishni juda qiziqib bajaradilar. Oʻyin shu tariqa davom etadi.

“Pantomima” oʻyini

Rivojlantiruvchi maqsad : Bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirish. Diqqat , xotira, tafakkur va tasavvurni, umumiy, mayda motorikasini shakllantirish. Bogʻlangan nutqini, topqirlik va hozirjavoblikni rivojlantirish.

Taʼlimiy maqsad: Aniq harakatlar bajarishga oʻrgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Guruhda doʻstona muhitni yaratish. Doʻstiga hurmat hissini uygʻotish, bolalarga oʻz nutqini nazorat qilishga oʻrgatish.

Jihozlar: Harakatlar aks etgan rasmlar.

Oʻyinning borishi: Logoped bir bolaga harakat aks etgan rasm koʻrsatadi va shu bola soʻzsiz imo-ishora orqali harakatni bajaradi. Qolgan bolalar harakatni topishadi. Toʻgʻri javob aytiladi.

«Shakllarni birlashtir»

Maqsad: Maktabgacha yoshdagi bolalarning sezgi, idrok, va tafakkur, jarayonlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash va tahlil qilish.

Metodika jihozi: bolaga oldindan tayyorlab qoʻyilgan turli predmetlar va shakllar chizilgan jadval beriladi.

Metodikani oʻtkazish tartibi: Bu metodika 5-6 yoshli bolalar uchun moʻljallangan boʻlib individual, yoki 5-6 ta bola bilan olib borilishi mumkin.

Koʻrsatma: Bolaga namunada berilgan beshta shaklga mos keluvchi shakllarni pastdagi jadval ichidan topish va qalam bilan birlashtirish vazifasi topshiriladi. Topshiriqni bajarish uchun 30-50 daqiqa vaqt beriladi.

“Erkalatib ayt” oʻyini

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarning ekspressiv nutqini rivojlantirish. Diqqat, xotira, mantiqiy tafakkurini mustahkamlash. Nutqning grammatik shaklini rivojlantirish

Taʼlimiy maqsad: bolalarga otlarning erkalatish shakllarini oʻrgatish. Lugʻatiga yangi soʻzlarni kiritish.

Tarbiyaviy maqsad: tarbiyachini, doʻstlarini diqqat bilan tinglash, kattalar va kichiklarga murojaat qilishda erkalash va hurmat qilish hissini tarbiyalash.

Jihozlar: mavzuga oid rasmlar.

Oʻyinning borishi: tarbiyachi tomonidan oila aʼzolarining suratlari koʻrsatiladi. Boladan ushbu soʻzni erkalatib aytish soʻraladi. Masalan, oyi – Oyijon.

“Rangidan top” oʻyini

Rivojlantiruvchi maqsad: Nutqning impressiv, ekspressiv tomonini, diqqat, xotira tafakkur, tasavvurni rivojlantirish. Koʻrish, his qilish qobiliyatlarini oʻstirish. Lugʻatini boyitish. Bogʻlangan nutqini shakllantirish.

Ta'limiy maqsad: Bolalarda ranglar haqida bilimlarini kengaytirish, mustahkamlash. Ularni farqlashga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Guruhda jamoa bo'lib ishlashga, do'sti va o'zining javobini nazorat qilishga o'rgatish.

Jihozlar : Doska, kassa, ranglar va rasmlı kartochkalar.

O'yinning borishi: Logoped ranglar bilan tanishtirib, doskaga joylashtiradi. Har bir bolaga rasmlı kartochkalarnı tarqatadi. Rasmni diqqat bilan kuzatish so'raladi. Bola o'ziga berilgan kartochkadagi rasmni nomlab, rangini aytib doskaga rang tagiga joylashtiradi. Logoped bolalarning javoblarini mustahkamlaydi.

"Sensorli (taktil) xaltachalar" o'yini


"Sensorli (taktil) xaltachalar". "Sensorli xaltachalar" - bu mayda donli mahsulotlar solingan xaltachalar. Yorqin rangdagi xaltachalar juda ko'p "sirlarnı" yashiradi, ya'ni ular kognitiv qiziqishning namoyon bo'lishini rag'batlantiradi. Bola xaltachada qanday don mahsuloti borligini his qilishga harakat qiladi, bu tasavvurnı rivojlantiradi, mayda motorikani rivojlantiradi. O'yinda don mahsulotlarini (mosh, guruch, loviya, noxat, qovoq urug'i) o'lchamlarining mo'ljallangan shakli, xususiyatlarini tavsiflash, og'zaki nutqni rivojlantiradi, so'z boyligini oshiradi.


Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik mavzusidagi o'yinlar

No	O'yin mavzulari
1.	"Grippning asosiy belgilari" pazl o'yini
2.	"Sog'lom bo'lish uchun nima qilishimiz kerak?" o'yin
3.	Tana qismlarini o'rganamiz, shaxsiy gigiyena qoidalari
4.	"Vitamin qayerda yashaydi?" o'yini
5.	"Vitaminlar" o'yini
6.	"Foydali va zararli oziq-ovqat" o'yini
7.	"Darmondorili Bo'g'irsoq" o'yini
8.	"Salomatlik uchun vitaminlar" o'yini

9.	“Askorbinka va uning do`stlari” o`yini
10.	“Yo‘l harakati xavfsizligi” ta’limiy o‘yini to‘plami

“Grippning asosiy belgilari” pazl o‘yini





“Grippning asosiy belgilari” pazl o‘yini

Maqsad: Bolalarning gripp kasalligining belgilari (yuqori harorat, bosh og‘rig‘i, yo‘tal, tumov) haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

O‘yinning borishi: Bolajonlar, “Grippning asosiy belgilari: yuqori harorat, bosh og‘rig‘i, yo‘tal, tumov ekanini bilasiz-a? Kelinglar hozir kichik guruhlarga bo‘linib olib stol ustidagi pazl bo‘laklaridan bittadan olasiz. Bir xil rangdagi bo‘laklarni bitta qilib birlashtirasizlar va bu tasvirda gripp kasalligining qaysi alomati tasvirlanganini aytasizlar.

Har bir guruh a‘zolaridan bir bola, o‘zlari yig‘gan pazlda grippning qaysi belgisi aks ettirilganligini aytib beradi.

“Sog‘lom bo‘lish uchun nima qilishimiz kerak?” o‘yin

Maqsad: bolalarda sog‘lom bo‘lish uchun nima qilishimiz kerakligi haqida tushunchalarini mustahkamlash. Bolalarning ko‘ptok ilib olish malakasi oshadi. Bolalar nutqi rivojlanadi, fikrlash doirasi kengayadi. Kayfiyati ko‘tariladi.

O‘yinning borishi: Bolalar doira shaklida turadilar. Tarbiyachi ko‘ptokni qo‘liga olib, o‘yinni boshlab beradi. Tarbiyachi: sog‘lom bo‘lish uchun nima qilamiz? Ko‘ptokni ilib olgan bola: “Sog‘lom bo‘lish uchun hojatxonaga borgandan keyin qo‘llarimizni yaxshilab yuvamiz.

Tarbiyachi. Keyin yana nimalar qilamiz?

Ko‘ptokni ilib olgan bola: “Sog‘lom bo‘lish uchun ovqatlanishdan oldin qo‘llarimizni tozalab yuvamiz”

Tarbiyachi: sog‘lom bo‘lish uchun nima qilamiz?

Ko‘ptokni ilib olgan bola: “Sog‘lom bo‘lish uchun ovqatlanib bo‘lgach qo‘llarimizni yuvamiz”

O‘yin shu tarzda davom etadi.

Tana qismlarini o‘rganamiz. Shaxsiy gigiyena qoidalari.

Maqsad: 7 yoshdagi bolalarni odamning tana qismlari bilan tanishtirish, aqliy rivojlanish hamda bilish darajasini oshirishga mo‘ljallangan. O‘yinchoqda mavjud bo‘lgan 66ta ovozli knopkalar kichik yoshdagi bolalar e‘tiborini ham jalb qilib, qiziquvchanligini oshiradi.

Bolani lugʻat boyligini, bogʻlangan nutqini, nutqning grammatik tomonini, fonematik idrokni, mayda qoʻl motorikani, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishga, mustaqil nutqni va bilish jarayonlarini rivojlantiradi

Gigiyenik talablar: Yorqin rangli, nam tozalash ishlari uchun mos boʻlishi kerak.

"Vitamin qayerda yashaydi?"

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarni vitaminlar turlari va ularning manbalari bilan tanishtirish.

Oʻyin qoidalari: Siz rasmni tanlashingiz va bu meva yoki sabzavotlarda qanday vitaminlar borligini nomlashingiz kerak.

Oʻyin harakatlari: kartalarni tanlash va ularni sabzavot yoki meva tasviri bilan moslashtirish.

Oʻyinning borishi:

Tarbiyachi bolalardan ikkita guruhga boʻlinishni taklif qiladi. Birinchi guruhning oʻyinchisi vitaminni koʻrsatadi, boshqa guruhning oʻyinchilari esa uni oʻz ichiga olgan sabzavot va mevalarning rasmlarini koʻrsatadi. Keyin aksincha: ikkinchi guruhning oʻyinchisi meva yoki sabzavotning rasmini koʻrsatadi va birinchi guruh oʻyinchilari undagi vitaminlarni nomlaydi va tegishli rasmni koʻrsatadi.



“Vitaminlar” oʻyini.

Tarbiyachi bolalarga vitaminlar harflar belgisi tasvirlangan atributlarni kiydiradi. “Vitaminlar” oʻyini davomida bolalar 4ta kichik guruhlariga boʻlinadilar, oʻyin bolalar diqqatini jamlashga yordam beradi. Bolalar musiqa ohangi ostida xonada sayr qiladilar. Tarbiyachining “Vitaminlarni hosil qiling, 2 ta “A”, 2 ta “V”, 2 ta “S”, 2 ta “D” vitaminlarni hosil qiling” degan buyrugʻidan soʻng bolalar oʻzlariga juftlik topib olib birlashishlari lozim. Keyin bolalar 4 kishidan iborat guruh tashkil etganlarida yakunlanadi.

Foydali va zararli oziq-ovqat

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarda qanday oziq-ovqat sog'lom, tanaga nima zarar yetkazishi haqidagi tushunchalarni singdirish.

Jihozlar: yashil va qizil kartochkalar; oziq-ovqat mahsulotlari (pirojnoe, limonad, dudlangan kolbasa, pishiriqlar, shirinliklar, qora non, bo'tqa, sut, murabbo, sharbat, sabzavotlar, mevalar) tasvirlangan mavzu rasmlari; rag'batlantirish nishonlari (rangli kartondan kesilgan olma, sabzi, nok).

O'yinning borishi: Bolalarga turli xil oziq-ovqat mahsulotlarining rasmlari beriladi. Yashil rasm ostida sog'lom oziq-ovqat, qizil rasm ostida esa zararli taomlar tasvirlangan rasmlarni qo'yishlari kerak. O'yinni tarbiyachi kuzatib turishi natijani bolalar bilan muhokama qilishi kerak bo'ladi.



Insonlar uchun zarur bo'lgan bu vitaminlarning hammasi biz iste'mol qilayotgan oziq –ovqat mahsulotlarida mavjud. Bolalar, siz vitaminlarni, dorilarni shifokorning tavsiyasiga binoan va kattalar ko'magida iste'mol qilishingiz kerakligini hech qachon unutmeng. O'z bilarmonlik bilan beruxsat uydagi dorilarga, vitaminlarga teginmeng.

“Yo'l harakati xavfsizligi” ta'limiy o'yini to'plami

Maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalarni svetofor, yo'l belgilari, yo'l harakati qoidalari bilan tanishtirish, shu haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

Ta'limiy vazifasi: yo'lning transport qatnov qismi va yo'lovchilar uchun ajratilgan joylari haqida ma'lumotlar berish, yangi so'zlarni (er osti yo'li, er ustki qatnov qismi, chorraha) o'zlashtirib, so'z lug'atini boyitish, DAN xodimi, haydovchi kasbi bilan tanishtirish va ularning vazifalari haqida so'zlab berish.

Rivojlantiruvchi vazifasi: ko'rish, eshitish qobiliyatlarini va xotirasini rivojlantirish, tasavvur va tushunchalarni kengaytirish.

Tarbiyaviy vazifasi: yo‘l harakati qatnov qismida o‘ynamaslik, kattalarga yo‘l berish, harakatlanish chog‘ida xavfsizlikni ta‘minlash va yo‘l belgilariga ahamiyat berish, shuningdek, muammoli vaziyatlarda o‘zlarini tutishga o‘rgatish.

Faollik markazi bilan ishlash yuzasidan qisqacha qo‘llanmalar: yo‘l harakati haqida bolalar bilan suhbatlar uyushtirish, savol-javoblar o‘tkazish, mavzuga oid she‘r, qo‘shiq va topishmoqlarni aytirish, turli rolli o‘yinlarni sahnalashtirish, “Yo‘lga qara!”, “Bu qaysi belgi?”, “Nima qilish kerak?”, “Qizil, sariq va yashil”, “Haydovchi va yo‘lovchi” o‘yinlarini o‘ynatish.

5-ilova

NUTQ, MULOQOT, O‘QISH VA YOZISH MALAKALARI SOHASINING KUTILAYOTGAN NATIJALARI ASOSIDA TA‘LIMY O‘YINLAR

	“Nutq va til” kichik sohasining kutilayotgan natijalari asosida ta‘limiy o‘yinlar nomlari
1	“Kim nima yeydi?” o‘yini
2	“Sabzovotlar va mevalar” o‘yini
3	“Uy va yovvoyi hayvonlar” o‘yini
4	“Qayta hikoya qil” o‘yini
5	“Voqeaband rasmlar” o‘yini
6	“Qayta hikoya qil” o‘yini
	“O‘qish malakalari” kichik sohasining kutilayotgan natijalari asosida ta‘limiy o‘yinlar nomlari
7	“Kodlangan harflar” o‘yini
8	“Men o‘qishni o‘rganyapman” o‘yini
9	“Bo‘g‘in o‘qiymiz” o‘yini
10	“Harflarni qo‘shib o‘qiymiz” o‘yini
11	“So‘z top” o‘yini.
12	“Bo‘g‘indan so‘z tuzamiz”
	“Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi” kichik sohasining kutilayotgan natijalari asosida ta‘limiy o‘yinlar nomlari
13	“Rasmni yig‘” pazl o‘yini
14	“Yolbars” pazl o‘yini
15	“Mushuk” pazl o‘yini
16	“Siniq, to‘lqinsimon, ilgak chiziqlar chizamiz” o‘yini
17	“Qo‘lni uzmasdan nuqta- chiziqchalarni birlashtirib rasm chizamiz” o‘yini
18	“Rasmlarni tekis shtrixlaydi” o‘yini

“NUTQ VA TIL” KICHIK SOHASINING KUTILAYOTGAN NATIJALARI ASOSIDA TA’LIMY O’YINLAR

“Kim nima yeydi?” o’yini

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarning espressiv, bog‘langan nutqini oshirish. Diqqat, xotira, mantiqiy tafakkuri, tasavvurini rivojlantirish va lug‘atini boyitish.

Ta’limiy maqsad: hayvonlarni nimalar bilan oziqlanishi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: kartochkalarni, rasmlarni to‘g‘ri maqsadli foydalanishga va tarbiyachini diqqat bilan tinglashga o‘rgatish.

Jihoz: hayvonlar va ularning iste’mol qiladigan taomlarini rasmi va mulyaji.

O‘yinning borishi: bu o‘yin leksik mavzularni takrorlash, mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Bunda bolaga bir nechta hayvonlar va ularning taomlar rasmi tasvirlangan kartochkalar yoki mulyaji shakli beriladi. Bola fikrlab hayvonni nima iste’mol qilishini topib, yoniga joylaydi.

“Sabzovotlar va mevalar” o’yini

Rivojlantiruvchi maqsad: “Sabzovotlar va mevalar” didaktik o‘yini orqali bolalarda sabzavotlar (sabzi, kartoshka, piyoz, karam, pomidor, bodring, baqlajon, sholg‘om, turp, lavlagi, balg‘ar qalampiri – bular sabzavotlar), mevalar (*olma, gilos, o‘rik, uzum, anor, shaftoli, anjir, behi, nok, olxo‘ri, xurmo, yong‘oq* – bular mevalar), sitrus mevalar (*limon, apelsin, mandarin, banan*)ni umumlashtirishga o‘rgatiladi, ularni shakli, rangi, hajmi, ta‘mi, iste‘mol qilinishiga qarab qiyoslash va xarakterlay olish ko‘nikmasini shakllantiriladi, umumlashtirilgan (*sabzavotlar, mevalar, gullar*) so‘zlarni nutqda qo‘llashga o‘rgatiladi. lug‘at boyligini boyitish.

Ta’limiy maqsad: bolalarning sabzovotlar va mevalar haqidagi bilimlarini boyitish.

Tarbiyaviy maqsad: sabzovotlar va mevalarning sog‘liq uchun foydasi haqidagi bilimlarini boyitish.

Jihozlar: sabzovotlar va mevalar tasvirlangan rasmlari kartochkalar, savatchalar.

O‘yinning borishi: bunda bolaga sabzovotlar va mevalarni o‘ziga tegishli savatchaga solishni o‘rgatiladi, ularni shakli, rangi, hajmi, ta‘mi, iste‘mol qilinishiga qarab qiyoslab aytib berishlari kerak bo‘ladi. O‘yin shu tarzda davom etadi.

Didaktik o'yinni ertalabki davrada, kunning 2-yarmida erkin faoliyat vaqtida, ta'limiy faoliyat jarayonida olingan bilimni mustahkamlash maqsadida ham, sayrda musobaqa o'yin usulida ham foydalanish mumkin

“Uy va yovvoyi hayvonlar” o'yini

Rivojlantiruvchi maqsad: “Uy va yovvoyi hayvonlar” didaktik o'yini orqali bolalarda uy va yovvoyi hayvonlar hayoti to'g'risidagi tasavvurlarini kengayadi, hayvonlarning solishtirib, ularning o'ziga xos belgilarini, farqini, qaerda yashashi, nima bilan oziqlanishi haqida so'zlab berishga o'rgatiladi Uy va yovvoyi hayvonlarga nisbatan qiziqish va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalanadi. lug'at boyligini boyitish.

Ta'limiy maqsad: bolalarning uy va yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimlarini boyitish.

Tarbiyaviy maqsad: Uy va yovvoyi hayvonlarning odamlar uchun foydasi haqidagi bilimlarini boyitish.

Jihozlar: uy va yovvoyi hayvonlar tasvirlangan rasmlar kartochkalar, uy va o'rmon tasvirlangan suratlar.

O'yinning borishi: bunda bolaga uy va yovvoyi hayvonlar o'ziga tegishli yashash joyiga qarab qo'yishni o'rgatiladi, ularni nomi, yashash joyiga qarab farqlab aytib berishlari kerak bo'ladi. O'yin shu tarzda davom etadi.

“Voqeband rasmlar” o'yini

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalar nutqini har tomonlama o'stirish. Nutqni grammatik rivojlantirish. Diqqat, xotira, tafakkurni, topqirlikni shakllantirish.

Ta'limiy maqsad: mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash. O'z nutqini nazorat qilish, gap tuzish ko'nikmalarini tarbiyalash.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarni bir jamoa bo'lib ishlash, bir-birining fikrini diqqat bilan tinglash va o'z nutqini nazorat qilishni tarbiyalash.

Jihoz: syujetli rasmlar ketma ketligi aks etgan kartochkalar.

O'yinning borishi: tarbiyachi tomonidan 4-bosqichli voqea aks etgan kartochka beriladi va voqea haqida so'zlab beriladi. Boladan voqeaning ketma ketligini qo'yib va gapirib berish so'raladi.

“Qayta hikoya qil” o'yini

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalar nutqining leksik grammatik tomonini, uzviylik, izchillik shaklini, diqqati, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri, eshituv idrokini rivojlantirish. Lug'atiga yangi va murakkab so'zlarni kiritish. Bog'langan nutqni o'stirish.

Ta'limiy maqsad: mustaqil qayta hikoya qilishga, savollarga aniq javob berishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda bir-birini tinglash malakalarini tarbiyalash.

Jihozlar: syujetli rasm aks etgan plakat.

O'yinning borishi: tarbiyachi bolalarga syujetli rasm asosida hikoya tuzib gapirib beradi. Bolalar tarbiyachining nutqini diqqat bilan tinglab, aytib berilgan hikoyani qayta hikoya qilib berishlari so'raladi. Tarbiyachi bolaga savollar berib, hikoyaning uzviylikini ta'minlash maqsadida ko'maklashadi

“Qayta hikoya qil” o'yini

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalar nutqining leksik grammatik tomonini, uzviylik, izchillik shaklini, diqqati, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri, eshituv idrokini rivojlantirish. Lug'atiga yangi va murakkab so'zlarni kiritish. Bog'langan nutqni o'stirish.

Ta'limiy maqsad: mustaqil qayta hikoya qilishga, savollarga aniq javob berishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda bir-birini tinglash malakalarini tarbiyalash.

Jihozlar: ertak asosida rasmlar.

O'yinning borishi: tarbiyachi ertak bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan suhbat-munozaralar o'tkazadi. Suhbat jarayonida ertakni so'zlab berishga; asar qahramonlari haqida o'z munosabatini bildirishga bo'lgan ishtiyoqini rag'batlantiriladi. Bolalar diqqatini badiiy asar mazmuni bo'yicha ishlangan rasmlarga qaratiladi.

“O'QISH MALAKALARI” KICHIK SOHASINING KUTILAYOTGAN NATIJALARI ASOSIDA TA'LIMIY O'YINLARI

“Kodlangan harflar” o'yini.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bolalarning nutqini rivojlantirish. Diqqat, xotirani, mayda motorikani, ko'ruv faoliyatini, chaqqonlikni, hozirjavoblikni rivojlantirish.

Ta'limiy maqsad: Bolalarni bilimlarni kengaytirish. O'qish va yozish malakalarni mustahkamlash. Lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish.

Tarbiyaviy maqsad: Tarbiyachini diqqat bilan tinglash, topshiriqqa to‘g‘ri yondoshishga o‘rgatish.

Jihozlar: Raqamlar ostida yozilgan harflar jamlanmasi.

O‘yinning borishi: Tarbiyachi bolalarga raqamlar ostida yozilgan harflar jamlanmasini, ya’ni kartochkani ko‘rsatadi va tushuntiradi. Har bir bolaga faqatgina raqamlar yozilgan kartochka tarqatiladi va raqam ostidagi katta harfni topib yozish so‘raladi. Bola harfni topib, yozib, hosil bo‘lgan so‘zni o‘qiydi. Tarbiyachi bolalar javobini kuzatadi, to‘g‘rilaydi.

“Men o‘qishni o‘rganyapman” o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarda nutqning impressiv, ekspressiv tomonini, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvurni rivojlantirish. Mayda motorikasini rivojlantirish. Lug‘atini boyitish. Bog‘langan nutqini shakllantirish.

Ta’limiy maqsad: bolalarga so‘zlarni bo‘g‘inga ajratish, shu so‘z nechta bo‘g‘indan iboratligini aytishni o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda hozirjavoblik va topqirilikni tarbiyalash.

Jihozlar: bo‘g‘inli rasmlar kartochkalar.

O‘yinning borishi: tarbiyachi bolalarga so‘zlarni bo‘g‘inlash qoidasini, bo‘g‘inga ajratishda chapak chalish orqali bajarishni tushuntiradi. Har bir bolaga rasmlar kartochkalarni tarqatib, shu so‘zni bo‘g‘inga ajratishda chapak chalish so‘raladi. Bola nechta chapak chalgan bo‘lsa, so‘z shuncha bo‘g‘indan iborat bo‘ladi.

Masalan: an, un, in, on; at, ut, it, ot.

“Bo‘g‘in o‘qiyamiz” o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarga xo‘r bo‘lib, yakka-yakka bo‘g‘in o‘qishni o‘rgatish. Bunda “b” tovushini ichda saqlab, keyin unlini qo‘shib birga o‘qish lozimligi amaliy ko‘rsatiladi.

Mayda motorikasini rivojlantirish. Lug‘atini boyitish. Bog‘langan nutqini shakllantirish.

Ta’limiy maqsad: bolalarga so‘zni bo‘g‘inlab o‘qishni o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda hozirjavoblik va topqirilikni tarbiyalash.

Jihozlar: bo‘g‘in o‘qish uchun unli va undosh harflar

O‘yinning borishi: tarbiyachi bolalarga undosh harfni markazga joylab unli harfni qo‘shib o‘qishni o‘rgatadi. Masalan: ba-liq, gi-los.

“Harflarni qo‘shib o‘qiymiz” ta’limiy o‘yin

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarga barmoqni yo‘lka bo‘ylab yurgazib bo‘g‘in o‘qishni o‘rgatish. Bunda “m” tovushini cho‘zib n unliga qo‘shib birga o‘qish lozimligi amaliy ko‘rsatiladi.

Mayda motorikasini rivojlantirish. Lug‘atini boyitish. Bog‘langan nutqini shakllantirish.

Ta’limiy maqsad: bolalarga bo‘gin o‘qishni o‘rgatiladi.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda hozirjavoblik va topqirilikni tarbiyalash.

Jihozlar: bo‘g‘in o‘qish uchun surat

O‘yinning borishi: tarbiyachi bolalarga harflarni qo‘shib o‘qish tartibi asosida bo‘g‘in o‘qishni (ma, mu, mi, mo) o‘rgatadi.

“So‘z top” o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: “O” tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish va bo‘g‘in, so‘zlarda mustahkamlash. So‘zda tovush o‘rnini aniqlash

Lug‘atini boyitish. Bog‘langan nutqini shakllantirish.

Ta’limiy maqsad: “O” tovushiga so‘z topish o‘rgatiladi.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda hozirjavoblik va topqirilikni tarbiyalash.

Jihozlar: “O” tovushiga mos suratlar.

O‘yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarni uch guruhga bo‘ladi: birinchi guruhga “O” tovushi bilan boshlanadigan so‘zlar topish, 2- guruhga “O” tovushi bilan tugaydigan so‘zlar, 3- guruhga “O” tovushi so‘z o‘rtasida kelgan so‘zlar topish aytiladi, qaysi guruh o‘ylanib, belgilangan muddatda so‘z topa olmasa o‘yindan chiqadi. O‘yinni oxirigacha davom ettirgan guruh g‘olib sanaladi.

“So‘z top” o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: “A” tovushini to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish va bo‘g‘in, so‘zlarda mustahkamlash. So‘zda tovush o‘rnini aniqlash

Lug‘atini boyitish. Bog‘langan nutqini shakllantirish.

Ta’limiy maqsad: “A” tovushiga so‘z topish o‘rgatiladi.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda hozirjavoblik va topqirilikni tarbiyalash.

Jihozlar: “A” tovushiga mos suratlar.

O‘yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga “A” tovushi ishtirok etgan soʻzlarni topish topshirigʻini beradi, bolalar oʻylanib, belgilangan muddatda soʻz topa olishlari kerak. Oʻyinda qiynalgan bolalarga yakka yondashiladi, hamkorlikda faoliyat olib boriladi.

“Boʻgʻindan soʻz tuzamiz”

Rivojlantiruvchi maqsad: “R” tovushini toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrgatish va : “R” tovushi ishtirok etgan boʻgʻinlardan soʻz tuzishni mustahkamlash. Soʻzda tovush oʻrnini aniqlash. Lugʻatini boyitish. Bogʻlangan nutqini shakllantirish.

Taʼlimiy maqsad: “R” tovushiga soʻz topishni oʻrgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda hozirjavoblik va topqirilikni tarbiyalash.

Jihozlar: “R” tovushi ishtirok etgan boʻgʻinlar.

Oʻyinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga “R” tovushi ishtirok etgan soʻzlarni topishni taklif etadi.

“R” tovushi ishtirok etgan boʻgʻinlardan soʻz tuzishni taklif etadi. Bolalar soʻzda tovush oʻrnini aniqlaydilar.

“Randa” rasmi qoyiladi. “RAN”, “DA” boʻgʻinlari “Randa” rasmi tagiga qoʻyiladi.

Shu tariqa ru-bob, ra-ke-ta, nar-von, var-rak, ar-ra, kabu soʻzlar tuziladi.

“QOʻL BARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH” KICHIK SOHASINING UTILAYOTGAN NATIJALARI ASOSIDA TAʼLIMiy OʻYINLAR

“Rasmni yigʻ” pazl oʻyini

Rivojlantiruvchi maqsad: Fasllar tasvirlangan suratdagi ifodalar maʼnosini tushunishga yordam berish. Mayda qoʻl matorikasini rivojlantirish.

Taʼlimiy maqsad: Bahor, yoz, kuz fasllari ifodasini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarga har bir faslning oʻz xususiyati borligi, bir faslning oʻz zavqi borligi haqida tushuncha berish.

Jihozlar: Bahor faslining ifodasi tushirilgan tasvirli surat, pazl oʻyinlari.

Oʻyinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga bahor fasllarida bajariladigan ishlar ifodasi tasvirlangan suratlarni koʻrsatadi va navbati bilan fasllarning ifodasini tushuntiradi.

1. Bahorda kunlar isib, qorlar eriy boshlaydi. Daraxtlar barg yoza boshlaydi, yerdan har xil oʻt va gullar yam-yashil boʻlib oʻsib chiqa boshlaydi. Chumchuqlar chugʻurlashadi.

2. Bolalar varrak uchiradilar. Bahor uchib keluvchi qushlar uchib keladilar

3. Daraxtlarga donxoʻraklar oʻrnatiladi. Donxoʻragimizga chumchuqlar uchib kelishadi. Bolalar har bir tasvirni yaxshilab koʻrib olib soʻngra pazl boʻlaklaridan oʻzlariga topshirilgan tasvirni yigʻadilar.

Tarbiyachi: bolalar, fasllarning pazl bo'laklaridan bittadan olasiz. Fasllarning bo'laklarini bitta qilib birlashtirasizlar va Bahor, yoz, kuz fasllari tasvirini hosil qilasizlar. Birlashtirishda qiynalsangiz namuna tasvirga qarang.

“Yolbars” pazl o`yini

Rivojlantiruvchi maqsad: Yolbars, o`rmon ifodalar ma'nosini tushunishga yordam berish. Mayda qo'l matorikasini rivojlantirish.

Ta'limiy maqsad: Yolbars, o`rmon ifodasini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda yovvyi hayvonlarni asrash tuyg'usini tarbiyalash.

Jihozlar: Yolbars, o`rmon rasmi, pazl o`yini.

O`yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga yolbars, o`rmon tasvirlangan suratni ko`rsatadi va yolbars, o`rmon tasvirini tushuntiradi.

Tarbiyachi: bolalar, yolbars, o`rmon tasvirlangan rasmning pazl bo'laklaridan bittadan olasiz. Yolbars, o`rmonning bo'laklarni bitta qilib birlashtirasizlar va yolbars, o`rmon tasvirini hosil qilasizlar. Birlashtirishda qiynalsangiz namuna tasvirga qarang.

“Mushuk” pazl o`yini

Rivojlantiruvchi maqsad: Mushuk, hovli ifodalar ma'nosini tushunishga yordam berish. Mayda qo'l matorikasini rivojlantirish.

Ta'limiy maqsad: Mushuk, hovli ifodasini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda yovvyi hayvonlarni asrash tuyg'usini tarbiyalash.

Jihozlar: Mushuk, hovli rasmi, pazl o`yini.

O`yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga Mushuk, hovli tasvirlangan suratni ko`rsatadi va Mushuk, hovli tasvirini tushuntiradi.

Tarbiyachi: bolalar, Mushuk, hovli tasvirlangan rasmning pazl bo'laklaridan bittadan olasiz. Mushuk, hovlining bo'laklarni bitta qilib birlashtirasizlar va mushuk, hovli tasvirini hosil qilasizlar. Birlashtirishda qiynalsangiz namuna tasvirga qarang.

“Siniq, to`lqinsimon, ilgak chiziqlar chizamiz” o`yini

Rivojlantiruvchi maqsad: Qolni yozuvga o`rgatish. Mayda qo'l matorikasini rivojlantirish.


Ta'limiy maqsad: Siniq, to`lqinsimon, ilgak chiziqlarni chizdirish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarga stulda to`g`ri o`tirish, ruchkani to`g`ri ushlashga o`rgatish.

Jihozlar: uy, daraxt, bulut, quyosh tasvirlangan tasvir.

O‘yinning borishi: Tarbiyachi bolalarga siniq, to‘lqinsimon, ilgak chiziqlarni chizdiradi.

Chizishda ularning orasidagi masofani bir xil saqlashga o‘rgatadi.



“Qo‘lni uzmasdan nuqta- chiziqchalarni birlashtirib rasm chizamiz” o‘yini

Rivojlantiruvchi maqsad: Qolni yozuvga o‘rgatish. Mayda qo‘l matorikasini rivojlantirish.

Ta‘limiy maqsad: Qo‘lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarga stulda to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani to‘g‘ri ushlashga o‘rgatish.

Jihozlar: nuqta- chiziqchalar bilan tasvirlangan tasvir.

O‘yinning borishi: Tarbiyachi bolalarga qo‘lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizishni o‘rgatadi.

Chizishda qo‘lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizishga o‘rgatadi.



“Rasmlarni tekis bo`yash” o`yini


Rivojlantiruvchi maqsad: Qolni yozuvga o`rgatish. Mayda qo`l matorikasini rivojlantirish.

Ta`limiy maqsad: Qo`lni uzmasdan rasmlarni tekis chizishga o`rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarga stulda to`g`ri o`tirish, ruchkani to`g`ri ushlashga o`rgatish.

Jihozlar: bayroq, uycha, qayiacha, qalam, olcha rasmlarining ichki qismini namuna tarzda tekis bo`yalgan ko`rinishda.

O`yinning borishi: Tarbiyachi bolalarga qo`lni uzmasdan rasmlarni tekis chizishgaga o`rgatadi.



Foydalangan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020
2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/”. Toshkent, 2022 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 391-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdaagi “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdaagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i.
6. Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yil 30-dekabrdaagi “Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida” “Ilk qadam” maktabgacha tashkilotining davlat o‘quv dasturi.– T.:2022.
7. Grosheva I.V., Olimov K.T., Nazarova V.A, Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. "Kuzatish va baholash". T.:2020 y.
8. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. "O'yin orqali ta'lim olish". T.:2020 y.
9. Nigmatov A.N., Buriev X.K., Mirsaatova Sh.R. Shquv qo‘llanma. “Yo‘l harakati qoidalari” (ertalabki davra suhbat) T.:2023 y.
10. Maktabgacha ta'lim agentligi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun kun tartibini va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish” yo‘riqnoma. T.:2024 y.

MUNDARIJA

№	Mavzu	Bet
1.	Kirish	3
2.	Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ish hujjatlari	4
3.	05-03. Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, ot-onalar to'g'risidagi).	13
4.	05-04. Bolalarning rivojlanish xaritalari. Yillik hisobot	17
5.	Yillik hisobot	20
6.	Ilovalar	28
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	95